Shixtani pech vannasiga yuklash uchun gumbaz chetga suriladi, badya (qovg‘a) pech vannasiga o‘qdosh qilib o‘rnataladi va tubi ochiladi. Yuklash oldidan karbyurizatorning (elektrod siniqlari, elektrod uvoqlari va shunga o‘xshashlar) xisobiy miqdoridan 75 % qismi badya yoki pechga yukланади.

Shixta yuklangan va gumbaz bilan berkitilgan pech eritish uchun ishga tushiriladi, ya’ni kuchlanish ostida bo‘lgan elektrodlar shixta bilan

kontaktlashgunga qadar pechga kiritiladi. Yey razryadlarini turg‘un o‘tishi yo‘lga qo‘yilgandan keyin pech yuqori quvvatga ulanadi. Shixta erigani sayin erimagan bo‘laklar xosil bo‘lgan quduqlarga itarib tushiriladi. Toshqol xosil qilish uchun toshqol xosil qiluvchi komponentlar: oxak va qum kiritiladi. Ularning massasi shunday tanlanadiki, eritish oxirida metall qatlami qalinligi 50 mm ga yaqin bo‘lgan qatlami bilan qoplansin. Toshqolning qovushoqligi yuqori bo‘lmasligi kerak (ya’ni, sinov qoshig‘idan oson to‘kilsin), qotgandan keyin esa siniq shlak yuzasi yashilroq sirtga ega bo‘lishi kerak. Qattiq xolatdagi toshqol singan joyining qora rangli va pufakchasimon bo‘lishi uning yuqori darajada oksidlanganligini bildiradi. Bunday xolda toshqolni qisman chiqarib tashlash va toshqol xosil qiluvchi yangi komponentlar qo‘shish kerak.

Asosiy toshqolni xosil qilish uchun pechga 1 t metallga 0,15 kg miqdorida oxak kiritiladi, natijada 0,001 % oltingugurt chiqarib yuboriladi. Cho‘yan to‘la eriganidan keyin kimyoviy taxlil qilish va oqorganligini tekshirish uchun namunalar olinadi, pech esa ikkinchi bosqichga ulanadi va metall 1400—1450°S gacha qizdiriladi. So‘ngra toshqol chiqarib yuboriladi, pechga karbyurizatorning umumiyl massasidan qolgan 25 % qismi, xamda oxak va qum kiritiladi. Birinchi ekspress taxlil natijalariga ko‘ra pechga ferroqotishmalar beriladi, so‘ngra metall 1440-1480°S gacha qizdiriladi va kovshga chiqariladi. Qo‘shimchalar miqdori 4.2-jadvalga muvofiq xisoblanadi.

Suyuq cho‘yan kimyoviy tarkibini meyorlash uchun pechga kiritiladigan qo‘shimchalar massasini xisoblash uchun ma’lumotlar

jadval

Kimyoviy tarkibning talab etiladigan ulchovlari	Kiritiladigan komponent	1 t metall massasiga, kg	
		Kislotali jrayonda	Asosli jarayonda

S ning 0,1% ga ortishi	Elektrod sinig‘i, grafit qirindisi yoki donador grafit		
Si ning 0,1% ga ortishi	Ferrosilitsiy FS 45		
Mn ning 0,1% ga ortishi	Ferrosilitsiy FS 75 Ferromarganets (78% Mn)		
S ning 0,1% ga kamayishi	Po‘lat chiqindilari Ferrosilitsiy FS 75		
Si ning 0,1% ga kamayishi	Po‘lat chiqindilari boshqa karbyurizator		

Induksion elektr pechlarida cho‘yanni eritish

Induksion pechda cho‘yan eritishning fizik-kimyoviy xususiyatlari. Vagrakalar va yoy pechlaridan farqli o‘laroq induksion pechlarda eritish oldingi eritish jarayonidan farqi qolgan suyuq metallga shixta yuklab olib boriladi. Shu sababli shixtaning qizishi va erishi uning komponentlarining suyuq metallda erishiga bog‘liq. Bunda fazalar orasida massa ko‘chirish va issiqlik faqat kizitishga emas, balki eritishga xam sarflanishi sodir bo‘ladi.

Tigelning o‘rta qismida xaroratlarning taqsimlanishiga ta’sir qiladigan devor oldi aralashtirish zonasida yuqorigi va pastki konturlar orasida «o‘lik» zona xosil bo‘lishi xisobiga xaroratning maxalliy ortishi sodir buladi. Yukori xaroratlari zonaning mavjudligi tigel reaksiyasining ketishiga ta’sir qiladi.



Bu reaksiyaning ketishi, shuningdek uglerod va boshqa elementlarning erishi induksion pechda eritishning o‘ziga xos xususiyati xisoblanadi. 4.3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uglerodning erishi ancha issiqlik yutilishi, kremniyning erishi esa issiqlikning ajralishi bilan sodir bo‘ladi. Binobarin, induksion pechlarda

energetik jixatdan olganda kam kremniyli shixta ashylaridan foydalanish,
undagi kremniy miqdorini esa ferrokotishmalar yorda

Eritish issiqlik effektlari mida talab etilgan miqdorgacha yetkazish foydalidir

jadnal

Eritgich	Eriydigan komponent	N entalpiyaning o‘zgarishi, J/g-atom
Cho‘yan (3,3% S)	Po‘lat (0,6% S)	1360
Cho‘yan (3% S)	Koks	11723
Cho‘yan (3% S)	FS-75	—3893

Elementlar kuyindisi va o‘tga chidamli qoplamasi kislotali bo‘lgan induksion pechda butun eritish jarayoni tigel reaksiyasining muvozanatda bo‘lishi bilan chambarchas bog‘langan. Induksion pech tarkibida kremniy kam bo‘lgan va uglerod miqdori ko‘p bo‘lgan cho‘yan eritsa S va Si ning ayni konsentratsiyalari uchun muvozanat xaroratiga erishilganda tigel reaksiysi boshlanadi, bu esa pech tigelining ko‘p yeyilishiga olib keladi. Shuning uchun qoplamasi kislotali pechda eritish xaroratini qizdirilayotgan suyuq cho‘yanning kimyoviy tarkibiga qarab tanlash zarur.


Induksion pechda eritish texnologiyasi. Induksion pechda suyuqlantirish texnologik jarayoni shixtani yuklash, uni qizdirish va eritish, o‘ta qizdirish, uglerodlash va cho‘yanning kimyoviy tarkibini berilgan tarkibga yetkazish, shuningdek termovaqt ishlovi berishni (saqlab turish) o‘z ichiga oladi. Yuklanadigan shixta qisman eritmaga botirilib elektr o‘tkazadigan sidirg‘a muxit xosil qilinadi va bu muxitda induktor bilan uyurma toklar xosil qilinadi. Suyuq metallga (oldingi eritishdan qolgan «botqoq» deb ataladigan qoldiq) shixta shuning uchun xam botirib yuklanadiki, sanoat chastotali elektr tokidan

foydalanimda shixtaning diskret elementlarida uyurma toklarni xosil qilish kam samara berar ekan, chunki ular metallni qizdiradi va u eriydi (4.8-rasm).

«Botqoq» massa pechdagи metall umumiy massasining 50 % ini tashkil qilishi mumkin va tegishlicha eritish davrlarining davomiyligiga ta'sir qiladi. «botqoq» qa yuklash bir necha bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, sig‘imi 12 t bo‘lgan pechda va sig‘imi 5 t bo‘lgan «botqoq» da eritilganda quyidagi ketma-ketlikka va davrlarning davom etishiga rioya qilinadi: 5—6 t shixtani yuklash (qaytarishdan tashqari) 15 daqiqa, eritish 1 soat 5 daqiqa, kimyoviy tarkibni meyoriga yetkazish 40 daqiqa, qaytarilgan cho‘yanni (2t) yuklash 10 daqiqa, qaytarilgan metallni eritish 15 daqiqa, xaroratiga ko‘ra meyoriga yetkazish va toshqolni nasos bilan chiqarib tashlash 25 daqiqa. Shunday qilib, pechning bir soatdagi ish unumi uning sig‘mining taxminan 1/3 ini tashkil qiladi.

Shixtani qizdirish va eritish vaqtida temir oksidlanadi. Xavo kislorodi temir aralashmalarini xam oksidlaydi. Temir, kremniy va marganets oksidlari toshqol xosil qiladi.

Induksiyon pechlarda cho‘yanni eritishda FeO dan temirni tiklash uchun karbyurizator sarflash va ferroqotishmalarni tejash maqsadga muvofiqdir. Eritishni eritma tarkibida kremniy va marganets miqdori kam va uglerod miqdori ko‘p bo‘lganda amalga oshirish lozim. Buning uchun karbyurizatorni tigel tubiga,



ferrosilitsiy va ferromarganetsni esa suyuq cho‘yan eriganida va o‘ta qizdirilgandan keyin uning ustiga tashlash zarur. Tarkibida uglerod bo‘lgan FS75 va FMn5 qo‘shilmalarni yuklagichga yuklaganda S, Si va Mn larning kuyindilari tegishlicha 18—25; 30—32 va 52—55 % ni tashkil qiladi. Agarda karbyurizator tashlansa, FS75 va FMp5 lar pech 1550°S gacha qizdirilib va 1440—1460°S gacha sovutilgandan keyin qo‘shiladi, bunda S kuyindisi 30—35% gacha ortadi, 51 va Mn куйиндиси эса тегишилича 5—7 хамда 18—24 % гача камаяди; шу boicdan, shuningdek komponentlarning erish, issiqlik effektlarini xisobga olib, birinchi navbatda karbyurizator va po‘lat siniqlarini, ular eriganida keyin esa cho‘yanning siniq parchalar xamda qaytgan cho‘yanni tashlash lozim. Ferroqotishmalar eng oxirida (meyoriga yetkazish uchun) qo‘shiladi.

Tigelli induksion pech:

1 – induktor, 2 – qopqoq, 3 – tigel, 4 – magnit o‘tkazgich, 5,6,7 – metall konstruksiyalar, 8 – pechni burish o‘qi.

Induksion pechida eritilganda toshqollar kovushoqligi katta bo‘ladi, chunki ularning tarkibida 60—70 % SiO₂ bor va xarorati past bo‘ladi, bu esa toshqol bilan birgalikda metallning ko‘p isrof bo‘lishiga olib keladi. Ularning tarkibi eritish jarayoni, elementlarning quyishi va oksidlarning o‘tga chidamli qoplamlar yuzasining qatlamidan toshqolga o‘tishiga bog‘lik. Toshqollarning kislotaliligi eritish boshidagi 0,9—1,1 dan xarorat 1500°S ga ko‘tarilganda 6—8 gacha ortadi. Toshqoldagi temir oksidlarning miqdori 40 dan 10 % gacha kamayadi, SiO₂ ning miqdori esa 40 dan 70 % gacha ortadi. Qolgan komponentlarning miqdori deyarli o‘zgarmaydi (2—3% SaO; 0,5—2,5% Mn; 7—14% Al₂O₃). SiO₂ miqdorining ortishi past xaroratga ega bo‘lgan SiO₂ • n FeO • MnO kabi murakkab birikmalarni xosil bo‘lishi xisobiga, uning o‘tga chidamli qoplamdan o‘tishi, shuningdek FeO ning kamayishi xisobiga uning toshqoldagi solishtirma ulushini ortishi bilan tushuntiriladi. FeO yuqori xaroratda asosan cho‘yan uglerodi bilan tiklanadi.

Cho‘yanning uglerodlanishi va uni ma’lum kimyoviy tarkibgacha yetkazish induksion pechda cho‘yan eritish jarayonidan eng muximi xisoblanadi. Induksion pechda cho‘yan eritishni yakunlovchi bosqichi terik ishlovi berishdir. Bu bosqich eritmani gomogenizatsiyalash va dastlabki shixta ashyolarining zasarli ta’sirini kamaytirish maqsadida bajariladi. Termik ishlov berish tigel reaksiyasining muvozanat xaroratidan 50°S ortiq, xaroratda tutib turishdan iboratdir. Tutib turish 5 daqiqa dan (SCH 20 cho‘yani uchun) 20 daqiqa gacha (SCH 45 cho‘yan uchun) davom etadi.

2.3. Rangli qotishmalarini eritish usullari.

Magniy qotishmalarini eritib olish

Magniy qotishmalarini eritib olishda quyidagi ligaturalar qo‘llanadi: alyuminiy — berilliy (97—95% Al, 3—5% Ve), magniy — alyuminiy (96—98 % Mg, 2—4% Al); alyuminiy — magniy — marganets (70% Al, 20% 10% Mn); ligaturalarning suyuqlanish xarorati 700—800°S.

Shixtada uning massasidan 40 % miqdorida turli navdagi qaytgan qotishmalardan foydalilanadi. Magniy qotishmalariga ishlov berish uchun magnezit yoki bur, legerlashda esa quymalarning zichligini oshirish uchun kalsiy ishlatiladi.

Magniy qotishmalarini eritib olish. Misol tariqasida statsionar pechlarda ML5 qotishmasini eritib olishni ko‘rib chiqamiz. Statsionar tigellarda ML5 kotishmasini tayyorlashda VI2 flyusidan foydalilanadi. Eritishdan oldin cho‘michlar, qoshiqlar va boshqa asboblar 750—800°S xaroratda kriolitli flyus bilan yuviladi.

To‘q qizil ranggacha qizdirilgan tigelga kukunsimon VI2 flyusi shixta massasidan 0,1—0,25% miqdorida solinadi. Tigelga oldin xajmining 1/3 miqdorida oraliq eritma solinadi, keyin kichik quyma xolidagi 120°S gacha qizdirilgan birlamchi qotishma bilan to‘ldiriladi. Eritma 700—730°S gacha qizdiriladi.

Qotishma jadal oksidlanmasligi uchun berilliy (0,002 %) qo‘shiladi va shixta massasidan 0,025—0,3% miqdorida magnezit bilan modifikatsiyalanadi.

Modifikatsiyalash uchun magnezit 1025 mm kattalikda maydalaniadi va 150—200°S da quritiladi. Magnezit eritmaga bir yo‘la yopiq idishlarda solinadi. Modifikatsiyalash vaqt 5—10 daqiqa. Agar metall yuzasida yonish boshlansa, ustiga maydalangan flyus solinadi. Keyin shlak olib tashlanadi va eritma sirtiga flyus solinadi.

Modifikatsiyalash uchun qotishmalarni o‘ta qizdirishdan xam foydalaniladi. Buning uchun qotishmani statsionar pechlarda 860°S gacha, olinadigan pechlarda esa 900°S gacha 10—15 daqiqa qizdiriladi. 700—730°S gacha sovitilganidan keyin qotishma jadal aralashtirish yo‘li bilan tozalanadi. Bunda eritma sirtiga quruq maydalangan flyus sepiladi. Tozalab bulingandan keyin metall sirtidan toshqol olib tashlanadi, texnologii namuna va spektral xamda kimyoviy taxlil uchun namunalar olinadi. So‘ngra yangi flyus sepiladi va eritma quyish xaroratigacha qizdiriladi. Quyishdan oldin eritma 15 daqiqa tutib turiladi.

Alyuminiy qotishmalarini eritib olish

Alyuminiy qotishmalari eritish vaktida oson oksidlanadi, gazlar va zararli qo‘shilmalar bilan tez ifloslanadi.

Eritma sirtida puxta oksid parda xosil bo‘ladi va bu parda uni keyingi oksidlanishdan saqlaydi. Qotishma erigan alyuminiyda erib ketmaydigan alyuminiy oksidi bilan ifloslanishi mumkin, uni faqat tozalash yo‘li bilan chiqarib yuborish mumkin. Alyuminiy qotishmalarda gazlar, asosan vodorod juda tez eriydi, natijada quymalarda g‘ovaklar xosil bo‘ladi. Shu boisdan alyuminiy qotishmalarini eritib olishda shixta ashyolari va eritish agregatini tugri tanlashning axamiyati katta.

Alyuminiy qotishmalari turli pechlarda eritaladi. Mayda seriyalab ishlab chiqarish sexlarida gazda yoki elektrda ishlaydigan tigelli pechlari yoki sig‘imi uncha katta bo‘limgan qaytaruvchi pechlari (aks ettirish pechlari) ishlatiladi. Alyuminiy ko‘plab ishlab chiqariladigan pechlarda gazda yoki elektrda ishlaydigan aks ettirish pechlari, qarshilik pechlari yoki sig‘imi 5 t cha bo‘lgan nduksion pechlari qo‘llaniladi.

Eritish vaqtida tigelli pechlar erib ketmasligi va alyuminiy qotishmasi temirga to‘yinmasligi uchun ular cho‘yandan tayyorlanib, ichi o‘tga chidamli bo‘yoq bilan bo‘yaladi yoki o‘tga chidamli g‘isht teriladi.

Xozirgi kunda gaz qaytaruvchi pechlar alyuminiy qotishmalarini eritishda asosiy agregat xisoblanadi. Chunki bu pechlarning ishlab chiqarish quvvati yuqori va katta xajmda metall bera oladi. Ammo qaytaruvchi pechlarning vanna chuqurligi katta bo‘limgani sababli metalning kuyish miqdori yuqori, yoqilg‘i sarfi ko‘p, samaradorligi past, qotishmadagi vadarod miqdori esa baland.

Alyuminiyning kislород bilan ta’sirlanishi juda onson bo‘lgани sababli uning suyuqlanish erish jarayoni murakkab fizik – kimyoviy bosqichlardan iborat. Bu jarayon bosqichlariga ta’sir etuvchi asosiy omil bu eritilayotgan metalning ustidagi atmosfera muxitidir. Olinayotgan qotishmaning tarkibidagi vodorod miqdorini kamaytirish maqsadida gaz – tigel pechlaridan foydalanishadi (4.16-rasm). Lekin bu pechlarning samaradorligi past, tigelni qizdirish uchun ko‘p miqdorda yoqilg‘i sarflanadi, termik FIK esa past (10dan 20% gacha). Undan tashqari tigellari juda qimmat, cho‘yan tigellari esa olinayotgan qotishmani temir molekulalari bilan to‘yintirib, mexanik xossalari pasaytiradi.

Qo‘llaniladigan shaxtali gaz qaytaruvchi pechlarning termik FIK yuqori (70% gacha yetadi). Ammo bu pechlarda qotishma tomchi xolatda eriydi (4.17-rasm). Bu esa metal quyilishini oshiradi va qotishmaning vodorod, xamda oksid birikmalari bilan to‘yintiradi. Buning oqibatida qotishmaning mexanik va quymakorlik xossalari yomonlashadi. Qotishmaning erish jarayonidagi muxitni yaxshilash, ya’ni kislород va vodorodsiz muxitda suyuqlanishni ta’minalash qotishma sifatini keskin oshiradi. Buni amalga oshirish uchun ikki kamerali shaxta qaytaruvchi pechlaridan foydalaniladi. Birinchi kamera eritish bo‘limi bo‘lib, 500 – 550 0S gacha qizigan metall suyuq metall vannasiga botadi. Suyuq metall temperaturasi va xajmi katta bo‘lgan sababli, vannaga botgan qotishma erish temperaturasiga qizib eriydi. Bu jarayon suyuq metall muxitida bo‘lgани sababli vodorod va kislород bevositga muloqatta bo‘lmaydi. Shu sababli

olinayotgan qotishmaning tarkibi gaz g‘ovaklari oksid qo‘srimchalaridan xoli bo‘lib, yuqori mexanik xossalriga ega. Ikkinci kamera esa suyuq metalni kerakli xaroratgacha qizdirish uchun xizmat qiladi va bu ikki kamerani issiqbardosh to‘sinq ajratib turadi. Bu to‘sinq vazifasi – birinchi va ikkinchi kameralar o‘rtasidagi issiklik almashinuv miqdorini meyorlashdan iborat. Suyuq metall birinchi kameradan ikkinchisigacha to‘sinq ostida bajarilgan kanallar orqali o‘tadi (4.18-rasm).

Kanalning ko‘ndalang kesim yuzasini o‘tayotgan suyuq metal xajmi, xamda ikkala kamera orasidagi issiqlik almashinuvi (gradiyent)ning kattaligi orqali aniqlanadi.

E r i t i sh. Misol tariqasida AL2 qotishmasini eritib olishni ko‘rib chiqamiz. Bu qotishmani siluminning kichik quymalarida, u bo‘lmaganida alyuminiy-kremniy ligaturasidan foydalanib eritish tavsiya etiladi. Bu qotishmaning shixtalariga kichik quyma xolidagi silumin, birlamchi alyuminiy, tarkibida 12—15 % bulgan alyuminiy-kremniy ligaturasi, 35—50 % gacha ishlab chiqarish chiqindilari, 15 % gacha ishlab chiqarish kirindilari qayta eritib olingan chushkalar kiradi.

Shixta toza, quruq, moy, mazut, tuproq bilan ifloslangan bo‘lishi kerak. Shixta ashyolari pechga solishdan oldin 100—150°S gacha qizdiriladi. Yaxshilab quritilgan va qizdirilgan tigel 600 — 700°S gacha isitiladi. So‘ngra unga ishlab chiqarish chiqitlari solinadi va ular eriganidan keyin silumin yoki alyuminiy chushkalari solinadi. Shundan keyin alyuminiy-kremniy ligaturasi solinadi va eritma yaxshilab aralashtiriladi. Xarorat 680—700°S gacha yetkaziladi va geksaxloretan (S2S16) yoki quruk xlор tuzlari (2pS12yoki MpS12) bilan tozalanadi.

Geksaxloretan gazni uzida yaxshi eritish xossasiga ega, u Al₂O₃ dan tashqari gazsimon tetraxloreten xosil qiladi:

Gazsimon tetraxloretilen yirik yuzaga tez qalkib chiqadigan pufaklar tarzida ajralib chiqadi, bu esa unga eritmadiagi vodorodning diffuziyalanishini qiyinlashtiradi va bu bilan tozalash samaradorligini pasaytiradi. Shu bois shixta

massasidan 0,5 — 1 % miqdoridagi geksaxloretan qotishmaga bo‘lib-bo‘lib soli-nadi, tozalash xarorati 730 — 750°S.

Flyus bilan tozalash. Qotishma vannasini yopib turgan flyuslar uni pech muxitining ta’siridan saqlaydi, eritmaning oksid qo‘shilmalardan tozalanishiga va gazining chiqib ketishiga yordam beradi. Flyuslar sifatida natriy xlorid va kaliy 1:1 nisbatda ishlatiladi. Ular oson eriydigan evtektika xosil qiladi. Shixta massasidan 2—3 % miqdoridagi ustiga solinadigan flyuslar chushkalarning ustiga ular pechga solinishi bilanoq sepiladi. Shixta eriganidan keyin shixta massasidan 0,5—1 % miqdoridagi flyus eritma ustiga sepiladi. Keyin uning ustiga flyusni quyultirish uchun natriy ftorid solinadi, flyus olib tashlanadi va eritma idishlarga quyiladi.

Qotishma larni va kumla sh. Bu usulning moxiyati shundan iboratki, bosim pasayishi bilan eritma sirtida vodorodning qotishmada erishi kamayadi. Qotishmada ionlashgan tarzda yoki atom xolida bo‘lgan vodorod molekulyar xolatga o‘tadi, pufakchalar xosil bo‘lib, ular sirtga qalqib chiqadi. Qotishma quyishdan oldin maxsus kamerada vakuumlashtiriladi, u yerda vakuum-nasos 0,13—1,3 kPa atrofidagi siyraklanishni saqlab turadi. Vakuumlash vakti 10—15 daqiqa.

Yukori sifatli qotishmalar olishning eng takomillashgan usuli vakuum ostida eritish va quyishdir.


Vakuumda quyganda qotishma oksidlanmaydi, bu esa qotishmalarning kristallanishi uchun yaxshi sharoit yaratib beradi. Vakuumda eritish maxsus jixozlangan induksion pechlarda olib boriladi.

Alyuminiy qotishmalaridagi gazlar ultratovush bilan ishlov berib chiqarib yuboriladi. Ultratovush to‘lqinlari eritmadan o‘tganida zarralarning elastik tebranishi yuzaga keladi. Inersiya natijasida ayrim zarralarning qaytma-ilgarilama xarakati tezligi turlicha bo‘lishi natijasida suyuqlikning yaxlitligi vaqtincha buziladi va chuqur vaakuumli mikrog‘ovaklar xosil bo‘ladi. Bu g‘ovaklarga qotishmada erigan gazlar intiladi va u yerda pufakchalar xosil bo‘ladi. Zarralar teskari tomonga xarakat qilganida gazlar siqiladi, biroq molekulyar vodorod

qotishmaga o‘tmaydi. Eritmaning yaxlitligi keyinchalik yana buzilganida pufakchalar kattalashadi va atmosferaga chiqib ketadi.

Modifikatsiyalash tarkibida ko‘p miqdorda kremniy bo‘lgan qotishmalar uchun zarur texnologik ojarayondir. Kremniyning katta plastinka tarzidagi toshqollari qotishmaning mexanik xossalarni yomonlashtiradi. Modifikatsiyalash uchun natriy ishlataladi, U qotishmaga NaF, NaS1 aralashmalari tarzida, masalan, 67 % NaCl va 33 % NaS1 solinadi.


Aluminiy qotishmalarini modifikatsiyalovchi flyuslar yordamida xam ishlashi mumkin. Eritib tingan maydalangan va 2,5 nomerli elakdan o‘tkazilgan modifikator shixta massasidan 1,5—2 % miqdorida suyuqlanma ustiga sepiladi.



Shaxta-tigel pechi

1-tigel; 2,4,8-gaz gorelkalari; 3-suyuq metall chiqaruvchi tarnov;

5-shaxta; 6-gori; 7-mo‘ri



«Djet Melter» gaz qaytaruvchi pechi

1-gaz gorelkasi; 2- shaxta; 3-kuzatish tirkishi; 4-qo'shimcha gorelka; 5-qizdirish kamerasi; 6-ishchi tirkish; 7-xavo tuynugi; 8-eritish kamerasi; 9-o'tish tuynugi; 10-yuklash eshigi.

Gazli shaxta-qaytaruvchi pechi

1-shaxta; 2-Issiqbardosh to'siq; 3-gaz gorelkasi; 4-chiqarish tarnovi; 5-qizdirish kamari; 6-o'tish tuynugi; 7-eritish kamerasi

Эритма флюс остида 10—15 дақиқа тутиб турилади, сўнгра флюс 2—3 дақиқа давомида аралаштириб турилади. Модификациялаб бўлинганидан кейин флюс олиб ташланади ва қотишма қолипларга қуилади. Натрий куйиб кетмаслиги учун модификация бошланган пайтдан куйиш тугагунча 30 дақиқа вақт ўтиши керак. Агар шу вақт ичида куйиш тутатилмаса, қотишманинг қолган қисмини иккинчи бор модификациялашга тўғри келади.

Nazorat savollari:

1. Elektr pechlarida po‘latni eritish qanday prinsiplarga asoslangan?
2. Pechning alangabardosh shibbasi qanday turlarga bo‘linadi?
3. Alyuminiy qotishmalarini eritishda nimalarga axamiyat berish lozim?
4. Alyuminiy qotishmalarini eritish pechlarining turlari aytib berining.
5. Magniy qotishmalarini eritish jarayonini aytib berining.

Adabiyotlar

S.A.Rasulov, V.A.Grachev. Quymakorlik metallurgiysi, Toshket, “O’qituvchi” 2004.

2. Postnikov I.O., Cherkasov V.V. Progressivniye metodi plavki i litya alyuminiyevix splavov.- M.: Metallurgiya, 2001.-271 s.
3. Shklyar.M.S. Pechi vtorichnoy svetnoy metallurgii. -M.: Metallurgiya, 1987.- 216 s.
4. Atkins R. Developments in metal melting and Holding in nonferrous foundries // Bereft. Foundry man. -1981.- 74, N8,XVI-XIX.-R.118-131.

3-mavzu: Qolip materiallari, aralashmalar va bo‘yoqlar Qolip materiallarining qisqacha tasnifi.

Reja:

1. Qolip va o‘zak aralashmalarining tarkibi va xususiyati.
2. Bo‘yoqlarni turlari va ishlatalish soxalari.

Tayanch so‘z va iboralar: Qolip materiallari, o‘zak aralashmalar, bo‘yoqlar, qolip, ashyolar, o‘zak, gaz o‘tkazuvchanligi, oquvchanligi, plastikligi, temofizik, mexanik, gaz almashinuvi, texnologik termofizik, qum-gilli qoliplar, gidravlik, mashinada qoliplash.

3.1.Qolip materiallarining qisqacha tasnifi

Bir marotabali qolip va o‘zak tayyorlash uchun zarur bo‘lgan barcha ashyolar qolip ashyolari deyiladi. Ular birlamchi qolip ashyolari va qolip aralashmalariga bo‘linadi.

Bir marotabali qoliplarning birlamchi ashyolariga bog‘lovchi va qo‘shimchalar (kuyishga qarshi, gaz o‘tkazuvchanligi, oquvchanligini va plastikligini; aralashmaning yopishqoqligini kamaytiruvchi va xakozo) kiradi.

Qolip aralashmalar birlamchi qolip ashyolaridan va foydalanishda bo‘lgan qolip aralashmalaridan tayyorlanadi (ishlatilgan qolip aralashmasi).

Ishlatilishiga ko‘ra aralashmalar qolip aralashmalariga, o‘zak aralashmalariga va yordamchi aralashmalariga bo‘linadi.

Qolip aralashmalarini to‘g‘ri tanlash quymakorlik soxasida katta axamiyatga ega, chunki qolip aralashmali olinayotgan quyma sifatiga bevosita ta’sir qiladi.


Aralashmaning xossalari 4 guruxga bo‘lish mumkin: I – temofizik; II – mexanik; III – gaz almashinuvi bilan bog‘liq; IV – texnologik termofizik xossa. Qolipga quyilgan metallning kristallanish tezligi va sovishi qolip aralashmasining termofizik konstantasiga bog‘liq. Bu konstantaning kattaligi issiqlik almashinuv jarayonini xisoblashda zarurdir. Konstantaning asosiy turlariga nisbiy issiqlik

sig‘imi, xarakat o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti; issiqlikni akkumulyatsiya qilish qobiliyatining koeffitsiyenti kiradi.

3.2.Qolip materiallari va aralashmalari

Bir marta ishlatilinadigan qum-gilli qoliplari - qolip aralashmalari, materiallari - qolip materiallari deb ataladi. Asosiy qolip materiallariga: qum (asosiy o‘tga chidamli tarkibi), bog‘lovchi moddalar va maxsus xususiyatli qo‘sishchalar kiradi. Ushbu daslabgi yangi materiallar va ishlatilgan qolip aralashmalarini qorishchirgichlarda maxsus texnologiya bo‘yicha aralashtirib qolip va o‘zak aralashmalari taylorlanadi.

Qoliplovchi materiallar, qoliplar va o‘zaklar suyuq metalning mexanik, issiqlik, kimiyoviy ta’siriga duch kelishadi va ularga ko‘p kriteriyalar bo‘yicha talablar kuyiladi. Bu talablar kuydagি xususiyatlarda to‘plangan: gidravlik, mexanik, issiqlik-fizikasiy (teplofizik) va texnologik (jadval).



Mashinada qoliplash uchun opokalar: 1-sapfa; 2-yunaltiruvchi vtulka; 3-markazlashtiruvchi vtulka; 3- L1, L2, B1 , B2, a, b , b1,h – opokali ulchovlari

Qolip va o‘zak aralshmalarining xususiyatlari

Gruppasi	Xususitlari
Gidravlik	Namlik, G‘ovoklik, Gazo‘tkazuvchanlik, Gazhosilqilish
Mexanik	<ul style="list-style-type: none"> - Qattiqlik - Puxtalik: - nam xolatida - mustahkamlangan xolda - qizitilgan holda - o‘ta qizdirish
Teplofizik	<p>Issiqlik o‘tkazish Darajao‘tkazuchanlik (temperaturoprovodnost) Issiqlik sig‘mi</p>
Texnologik	Okuvchanlik, Yopishqoklik, O‘tga chidamlilik, Zichlanish, Namtortishlik, Ishlovga moslik, Yashovchanlik, Chochilib ketish, Kuyib yopishib qolish, Urib chiqarilish.

Jadvalda keltirilgan xususiyatlarning axamiyatga ega, asosiylari quydagilar:

O‘tgachidamlilik – qolip aralashmalarining yuqori darajaga chidam berib quymakorlik qolipini yaxshi ishchi xolda saklashi.

Qolip aralashmalarini tanlashda quyiladigan suyuq qotishmalarning issiqlik darajasini hisobga olish kerak. Ayniqsa bu omil devori qalin bo‘lgan quymalarni quyishda kata axamiyatga egadir, chunki bu xolatda suyuq qotishmaning ta’sir qiladigan vaqtি ko‘prok bo‘ladi. Qoliplar yuzasining issiqlik darjasи qotishmalarning quyish issiqlik darajasiga yaqinlashadi, bu sharoitda qolip aralashmasi yumshab va birikib qolishi mumkin.

Ba’zi bir qotishmalarning suyuqlanish darjasи va qolip aralashmalarining o‘tga chidamligi 4 jadvalda keltirilgan.

jadval

Qolip aralashmolarining kotishmalarni quyish darjasи xisobga olingan xoldagi o‘tga chidamligi

Qotishmaning markasi	Qotishmaning suyuqlanish darajasi, 0S	O'tgachidamligi, 0S
35L po'lati	1500	1700
SCH 20 cho'yan	1170	1500
Bronza	1080	1200
Al - qotishmasi	600	800-900

Puxtalik – qolipning, yoki o‘zakning tashqari kuch ta’siridan buzilmasdan va geometrik o‘lchovlarini o‘zgartirmaslikga chidamliligi. Qolip aralashmalarining puxtaligiga qo‘yiladigan talab quymani taylorlab olishda o‘zgaradi.

Qoliplarning konveyyerda bir biriga urilishda, surilishda, ko‘chirishda, cho‘zilishida qolipning buzilmasligi va chidamliligi saqlanib qolishi va suyuq qotishmani quyishda statik, dinamik bosimlarga va suyuq metall isikligining ta’siriga chidab berishidir.

Nam xolatdagi qolip aralashmalari puxtaligi / ko‘lda qoliplash uchun 0,05 n/mm², mashinada qoliplashda 0,05 dan to 0,1 n/mm².

O‘zaklar uchun issiqlik va kimyoviy puxtalanishdan so‘ng /

Quymaning qolipda kotishi vasovishi jarayonida qolip aralashma yaxshi ishlovga mosligiga ega bo‘lishi kerak, chunki quymalarda issiq va sovuk darzliklar xosil bo‘lishi mumkin.

Qoliplardan quymani ajratish jaryonida qolip aralashmalari quymadan onson va kulay ajralishi lozim.

Urib chiqarishlik, yoki koldiq puxtalik bu qolip aralashmasining quymadan ajralish xususiyatidir, qolip aralashmalarining koldiq puxtaligi /=0,2 n/mm² dan oshmasligi kerak.

Teplofizik xususiyatlari. Quymakorlik aralashmalarining teplofizik xususiyatlari quyma va qolip o'rtasida issiqlik almashishini belgilaydi, chunki undan quymaning qotish tezligi va tuzilishi, mexanik xususiyatlari va qolipdan quymani ajratish vaktiga bog'likdir.

Undan tashkari qolip va quyma o'rtasidagi issiqlik almashivu qolipning kizishi chukurligiga bog'likdir. Bunga bog'lik aralashmadagi komponentalar aktivligini yo'qotishi va kerakli miqdorida uni yangilash (texnologik xususiyatlarini tiklash) lozim bulad.

Plastiklik – qolip aralashmasi deformatsiya bo'lishi va yuqlanishi, kuch ketganidan keyin deformatsiyani saklashi.

Gazxosilqilishlik – qolip aralashmasining suyuq metal quyilganida gazlar chiqarishi.

Gazo'tkazuvchanlik – qolip aralashmasining gaz utkazish xususiyati.

Namtortishlik – qolip aralashmalarining atrof muxitdan namlikni adsorbsiya qilishi, unda kupinchcha zichlashtirilgan aralashmalarning mexanik xususiyatlari pasayadi (ayniksa o'zak aralashmalarida).

Yashovchanlik – qolip va o'zak aralashmalarining o'zok vakti yaroqlik xususiyatini saklashi.

3.2.Bo'yoqlarni turlari va ishlatalish soxalari

Quymalarning yuza tekisligini oshirish maqsadida qolip va o'zak yuzasiga qoplanadigan ashyolarni yordamchi aralashmalar deyiladi.

Nam xolatda qoliplar metall quyiladigan qoliplarning yuzasi quyishga qarshi aralashma bilan qoplanadi.

Po'lat quymalar olishda qolip yuzasi changsimon kvars bilan, katta xajmdagi cho'yan quymalar olishda esa yaltiroq grafit bilan qoplanadi.

Quruq xolatdagi qolip va o'zaklar kuyishga qarshi bo'yoqlar bilan qoplanadi. Bu bo'yoqlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Tarkibida suyuq metall ta'sirida alangalanadigan yoki yumshab ketadigan qo'shimchalar bo'lmasligi kerak;

Metall yoki uning oksidi bilan reaksiyaga kirishmasligi va quyi xaroratlarda erib ketadigan birikmalar xosil qilmasligi kerak;

Qolip yoki o‘zak yuzasini bir tekisda qoplay olishi kerak;

Qolip yoki o‘zak yuzasida quritilgandan keyin xam mustaxkam o‘rnasha olishi kerak;

Suyuq metall ta’sirida yuvilib ketmasligi va uning yuqori xarorati ta’sirida yorilib ketmasligi kerak.

Bo‘yoqlar tarkibiga uning qavat–qavat bo‘lib ketishini kamaytiruvchi alangabardosh bog‘lovchi va maxsus qo‘shimchalar qo‘shiladi.

Bo‘yoqlarga qo‘shiladigan alangabardosh ashyolar (to‘ldiruvchilar) quymaning qotishmasiga qarab olinadi. Masalan: po‘lat quymalari uchun – changsimon kvars; cho‘yan quymalari uchun – grafit yoki grafitli koks va changsimon kvars aralashmasi; rangli qotishmalardan quyma olish uchun esa talk ishlatiladi.

Bo‘yoqlarga 3-10% miqdorida B sinfidagi bog‘lovchilar qo‘shiladi. Ularda erituvchi sifatida suv ishlatiladi. Eritmaning qovushqoqlik darajasini oshirish maqsadida 3,5% miqdorida montmorillonit gili qo‘shiladi. Bu gil bo‘yoqdagi kuyishga qarshi bo‘lgan qo‘shimcha kukunning cho‘kindi bo‘lib qolishining oldini olish bilan bir qatorda, bo‘yoqning oksidlanib qolishiga qarshi ximoya vazifasini xam bajaradi. Shu maqsadda bo‘yoq tarkibiga 0,5% miqdorida texnik sovun qo‘shsa xam bo‘ladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida sirkon asosida tayyorlangan bo‘yoqlardan keng foydalaniladi.

Quritilgan qolip va o‘zaklar yuzasiga bo‘yoq purkalganidan so‘ng, ular yana quritilishi kerak. Bu jarayonni qaytarmaslik maqsadida bo‘yoqlarni qolip va o‘zaklar yuzasiga issiqlik davrida purkash lozim. Shu maqsadda bo‘yoqlarga suv o‘rniga yengil parlanuvchi suyuqlik (spirt va boshqa) qo‘shiladi. Bunday bo‘yoqlarning tan narxi yuqori bo‘lgani sababli, ular faqat mas’uliyatli quymalar olishda qo‘llaniladi.

Qolip va o‘zak aralashmalarini tayyorlash

Qolip aralashmalari uch bosqichda tayyorlanadi:

- 1 – yangi qolip ashyolarini tayyorlash;
- 2 – ishlatilgan aralashmalarni tayyorlash;
- 3 – tayyorlangan ashyolardan aralashma tayyorlash.

Qumlarni tayyorlash. Omborxonaga kelgan qumlarning namligi turlicha bo‘lgani sababli ular 250 0S xaroratda quritiladi. Qumlar xavo oqimida ishlovchi barabanli pechlarda quritiladi. 2-2 rasmida qum quritish jixozi keltirilgan. Quritish avvalida qum 4 mm diametrli tirqishlarga ega bo‘lgan panjara 4 da joylashtiriladi. Tirqishlarning umumiyligi yuzasi panjara yuzasining 10% ni tashkil etadi. Panjara ustida joylashtirilgan qumning qalinligi 400-450 mm bo‘lib, yonish maxsulotlari shu qum joylashgan taglik ostiga yo‘naltiriladi. Yonish maxsuloti bo‘lgan gazning xarorati 1000 0S bo‘lib, uning bosimi 400 mm suv ustuniga teng. Bu bosim qumni panjaradan ko‘tarishga va qum zarralarini tartibsiz xarakatlanishiga kifoya qiladi. Qum zarralarining bunday tartibsiz xarakati go‘yo qaynar buloqqa o‘xshagini uchun bu jarayonni qaynar buloq usuli deyiladi. Bu jarayonda qum zarralari bilan yonish maxsuloti o‘rtasidagi issiqlik almashinushi juda intensiv kechadi.

Natijada qum zarralarining xarorati bilan chiqib ketayotgan gazlarning xarorati o‘zaro teng bo‘lib 100-1200S ni tashkil etadi.

Rezervuarning shakli konussimon qilib bajarilishi 3 qum zarralarining xarakat tezligini susaytiradi. Changsimon zarralar gaz oqimi bilan mo‘riga chiqib ketadi. Quritilgan qum uzluksiz ravishda tarnov 6 orqali transporter 1 ga 2 vositasida tushadi. Bunday qurilmalarning ishlab chiqarish quvvati 10 t/soat ni tashkil etadi.

Quritilganidan keyin qum normal xaroratgacha (200S) sovitilib, elakdan o‘tkaziladi. Elash jarayoni yassi, barabansimon yoki konussimon elaklar yordamida amalga oshirilib, ularning tirqishlari 3–5 mm o‘lchamga ega.

Gillarni tayyorlash

Gillar xam quritiladi va maydalanadi. Montmorillonit gillari 120 0S da, qolgan gillar esa 200-250 0S da quritiladi. Quritish uchun asosan baraban

pechlaridan foydalaniladi. Quritilgan gillar ikki bosqichda maydalanadi: avval dag‘al xolatgacha (o‘lchami 15-25 mm gacha) shakli, valsli yoki bolg‘ali maydalagichlarda, keyin esa sharli, bolg‘ali yoki yulduzli tegirmonlarda 0,1 mm o‘lchamgacha maydalanadi. Shundan keyin gillarni qumlarni elashda ishlatiladigan elaklar yordamida elakdan o‘tkaziladi.

Qolip aralashmalariga gilni kukunsimon xolatda emas, balki suspenziya xolatida qo‘sghan afzal. Aralashma tarkibi 45-60 miqdor suvi 35-40 miqdor gildan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi. Suspenziya tayyorlashda sharli tegirmon, lopastli aralashtirgich yoki begundan foydalaniladi. Tayyor suspenziya qolip aralashmasi tayyorlanadigan bo‘limga quvur orqali yoki maxsus idishlarda uzatiladi.

Qolip va o‘zak ashyolarini tayyorlashda gil kukuni o‘rniga suspenziyadan foydalanishning qo‘yidagi afzalliklari mavjud:

Gilning bog‘lovchilik xususiyatining ortishi tufayli uning sarfi 30%ga kamayadi.

Gilni kukun xolatiga olib kelish uchun zarur bo‘lgan maydalash, quritish va elash jixozlariga extiyoj bartaraf etiladi.

Gilni quritish uchun yonilg‘iga extiyoj yoqoladi.

Lekin, shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, suspenziyadan foydalanishda 1% miqdordagi gil uchun 1,5% miqdorda suv qo‘shilishi kerak. Bu esa aralashmaga qo‘shiladigan ba’zi tashkil etuvchilar uchun yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan miqdordir.

Ko‘mir kukunini taylorlash.

Ko‘mir kukuni áam gil kukuni tayyorlanadigan maydalash jixozlarida taylorlanadi.

Yangi ashyolarning qolgan qismini (bog‘lovchilar, changsimon kvars va boshqalar) quyuv sexlariga tayyor áolatda yetkazib, ularni tayyorlash uchun maxsus jixozlarga xojat yo‘q.

Ishlatilgan aralashmalarni taylorlash.

Qoliplardan ajratib olingan aralashmalarga qaytadan ishlov berilib, aralashma taylorlash bo‘limiga uzatiladi. Quruq qoliplardan ajratib olingan aralashmalar tarkibida qattiq aralashma kesaklari mavjud bo‘lib, ular silliq valiklar yordamida eziladi. Nam qoliplardan ajratib olingan aralashmalar esa osonlik bilan maydalanadi, shuning uchun ularni valiklar bilan ezib maydalashga extiyoj bo‘lmaydi.

Aralashma tarkibidagi metall parchalari (sachragan metall zarralari, o‘zak korpuslarini) ajratish uchun magnitli separatorlardan foydalilanadi (2.3-rasm).

Ajratuvchi tebranma panjaradan aralashmani uzatib beruvchi lentali konveyyerning 3 yetakchi shkividida 1 ko‘p qutbli elektromagnit joylashtirilgan bo‘lib, aralashmada mavjud bo‘lgan metall zarralari magnitga tortilishi natijasida yopishadi va lenta shkivdan ajralgan qismidagina yerning tortish kuchi ta’siri ostida lentadan uzilib tushadi. Lentadagi magnitlanmaydigan ashyolar esa udan oldin lenta shkivining atrofida aylanishni boshlashi bilanoq aloxida oqim xosil qilib tushadi. Metall zarralari aloxida idishga 2 yig‘ilib, ishlatilgan aralashma esa lentali kanveyr oqali ishlovnning keyingi bosqichiga uzatiladi.

Magnitli separatorordan keyin aralashma silindirsimon yoki konussimon elakklardan o‘tkaziladi. Bu elaklar tirqishlarining o‘lchami 3-10 mm ni tashkil etadi. Karorati 500S gacha sovitilgan aralashma tayyorlash bo‘limiga uzatiladi.

Tarkibida bog‘lovchilarining qotib qolgan bo‘laklari bo‘lgan o‘zak aralashmalari regeneratsiya deb nomlanadigan maxsus ishlov berish bosqichidan o‘tkaziladi. Regineratsiyadan maqsad—o‘zak aralashmasini taylorlashda ishlatiladigan yangi qumni ishlatilgan o‘zak aralashmasi bilan almashtirishdir.

Ishlatilgan o‘zak aralashmasi maydalanadi, kesak ǵolatida qotgan bo‘laklar esa maydalanim qum zarralari va changsimon zarralarga ajratiladi. Bu changsimon zarralarning ǵosil bo‘lishiga qum zarralarining issiqlik ta’sirida yorilishi sabab bo‘ladi. Maydalangan o‘zak aralashmalari zarralarining o‘lchami bo‘yicha sinflarga bo‘linadi. Bu jarayon ǵavo oqimi yordamida (quruq regeneratsiya)

oshirilishi yoki maxsus idishlarda suvga aralashtirilib (xo‘l regeneratsiya) amalga oshirilishi mumkun.

Regeneratsiya jarayoni juda murakkab bo‘lib, kata xajmdagi ishlab chiqarish maydonlarini va u bilan bog‘liq katta iqtisodiy xarajatlarni talab qiladi. Shuning uchun regeneratsiya faqatgina yuqori sifatga ega bo‘lgan kvars qumini olib kelish mushkul bo‘lgan kollardagina qo‘llaniladi.

Qolip ashyolarini taylorlash.

Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: taylorlab qo‘yilgan qolip ashyolarini aralashtirish, ularni qoliplash, zichlash va titish.

Qolip ashyolarini aralashtirish – aralashma tashkil etuvchilarining bir meyorda butun xajm bo‘yicha taqsimlanishini va xar bir qum zarrasining namlangan bog‘lovchi bilan bir tekisda qoplanishini amalga oshirishdan iborat. Shu yo‘l bilan aralashmaning yuqori mustaxkamligi va gaz o‘tqazuvchanligiga erishiladi.

Qolip va o‘zak ashyolari maxsus aralashtirgichlarda qoriladi. Ishlab chiqarishda yugurdak (begunlar) deb nomlangan aralashtirgichlar keng qo‘llaniladi. Yugurtaklar vertikal va garizantal g‘ildirakli bo‘ladi. 2.4-rasmda gorizontal g‘ildirakli avtomatlashtirilgan yugurtakning sxemasi keltirilgan. Vertikal o‘q (2) da joylashgan travers 3 da mayatnik (4) lar joylashgan bo‘lib, bu mayatniklarga g‘ildirak (5) lar o‘rnatalgan. Vertikal o‘qga joylashgan traverslarga mayatniklar sharnir (6) yordamida biriktirilgan. Valning aylanishi oqibatida markazdan qochma kuch ta’sirida g‘ildraklar idish (1) devorlariga qarab og‘adi. Traverslar bilan birga xarakatlanuvchi kurakcha (7) aralashmani idish tubidan ko‘tarib g‘ildiraklar ostiga suradi. g‘ildiraklar esa bu aralashmani ezib o‘tadi. Shunday qilib, kurakchalar va g‘ildiraklarning birligida qilgan xarakatlari evaziga aralashmaning qorishuvi amalga oshadi. Aralashmaning qorishuvi yakunlanganidan so‘ng tayyor maxsulot idishdan tirqish (8) orqali olinadi.

Yugurtaklarning ish unumdorligi 20m³/soat ni tashkil etadi. Xar bir qorish jarayoniga 15-20 daqiqa vaqt sarf bo‘ladi.

Aralashtiradigan yugurtaklar olti ishni amalga oshirishlari mumkin: belgilangan miqdordagi suvni idishga quyish, qum yoki ishlatilgan aralashmani idishga yuklash, xavoni so‘rib olish yo‘li bilan changni chiqarib tashlash, maxsus taglikdan aralashmani yugurdak idishiga yuklash, aralashmani qorish, idishdan tayyor maxsulotni chiqarish. Bu olti bosqichning xar biri berilgan vaqt mobaynida amalga oshadi.

Qorishma tayyorlovchi jixozlarning avtomatlashtirilishi, aralashma tashkil etuvchilarining miqdorini aniq meyorlash va jarayonning xar bir bosqichini belgilangan tartibda bajarilishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan usulda tayyorlangan aralashmadan tayyorlangan qoliplarning sifatlari qo‘lda boshqarib tayyorlanganiga ko‘ra ancha yuqori.

Yugurtaklarda tayyorlanganidan keyin bog‘lovchi sifatida gil ishlatilgan aralashmalar 2-6 soat mobaynida tindirish uchun bunkerlarga joylashtiriladi. Bu vaqt gil zarralarining atrofida suv qoplamasi xosil bo‘lishi va namlikni gil zarralariga teng taqsimotini ta’minalash uchun zarurdir. Tarkibida gil miqdori kam bo‘lgan aralashmalarni tindirish uchun 2-4 soat vaqt kifoya qiladi; gil tashkil etuvchilarining miqdori oshgan sari tindirish vaqt oshib boradi (5 va undan ortiq soat).

Tindirilgan aralashmalarni tindirib mayinlik berish uchun atrabot yoki dezintegratorlarga uzatiladi. Titib mayinlashtirilgan aralashmalardan qolip tayyorlashda ularni zichlashish darajasi butun xajm bo‘yicha deyyarli tenglashadi va qolipning gazo‘tkazuvchanlik qobiliyati yuqori bo‘ladi.

Rasmda aerator sxemasi keltirilgan bo‘lib, val (1) da aylanuvchi kurakcha (2) Lar yuklash tirqishiga (4) kelib tushuvchi aralashmani panjara (3) ga otib beradi. Bu panjara erkin xolatda osib qo‘yilgan zanjir yoki simlardan iborat bo‘lib, unga urilgan aralashma maydalani tushadi. Aerotorlarning ish unumdorligi 80m³/soat ni tashkil etadi. Dezintegratorlar esa kamroq quvvatga ega.

Titilgan qolip aralashmalari tasmali konveyirlar yordamida qoliplash jixozlari tepasiga o'rnatilgan bunkerlarga tushuriladi. Ko'p xollarda bir necha qoliplash jixozlariga bitta tasmali konveyyer aralashmani uzatib beradi. Agar tasmali konvyyerdan bunkerga aralashma qo'l usulida yuklansa, ishchi xar bir bunkerning yuklovchi jixozini ishga tushirib, undagi yuklash jarayoni tugaganidan keyin, ikkinchi, uchinchi va xakozo bunkerlarga o'tishi lozim bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan usulda bunkerlarga qolip aralashmasini yuklash esa bu jarayonni uzluksiz bir vaqtning o'zida amalga oshirish imkonini beradi.

Bu yerda bunker xajmining axamiyati katta. Chunki bunker xajmi qancha katta bo'lsa ostki qatlamda joylashgan aralashmaga shuncha katta og'irlik kuchi ta'sir etib, titilgan aralashma yana zichlashib qoladi. Shuning uchun bunkerdag'i aralashma miqdorini cheklash zar Xozirgi kunda aralashma tayyorlash va bunkerlarga yuklash jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, ularni qo'llash ishlab chiqarish xajmiga qarab amalga oshiriladi.

Nazorat savollari.

1. Qolip tayyorlash bosqichlarini aytib bering.
2. Qoliplash mashinalarining klassifikatsiyasini aytib bering.
3. Qolipga suyuq metall qanday quyiladi?
4. Quymalarga qanday termik ishlov beriladi? Termik ishlov turlarini aytib bering.
5. Kristallanish deb qanday jarayonga aytildi?
6. Modifikatsiyalash deganda nimalar tushuniladi?
7. Qotishmaning quymakorlik xossalariiga nimalar kiradi?
8. Quymada ichki zo'riqish kuchlarining xosil bo'lish sabablarini tushuntirib bering.
9. Cho'yanlar va po'latlar qanday sinflarga bo'linadi?

Adabiyotlar

- 1.S.A.Rasulov, V.A.Grachev. Quymakorlik metallurgiysi, Toshket, “O’qituvchi” 2004.
2. Postnikov I.O., Cherkasov V.V. Progressivniye metodi plavki i litya alyuminiyevix splavov.- M.: Metallurgiya, 2001.-271 s.
3. Metallurgicheskaya teplotexnika. V 2-x tomax. TL. Teoreticheskiye osnovi: Uchebnik dlya vuzov / V.A. Krivandin, B.A. Arutyunov., B.S. Mastryukov i dr.- M.: Metallurgiya, 2002.- 424 s.
4. Kitayev B.I., Zobnin B.F., Ratnikov V.F. i dr. Teplotexnicheskiye raschetti metallurgicheskix pechey. -M.: Metallurgiya, 2003 . - 528 c.

4- mavzu. Elektr yoy pechida po‘latni suyuqlantirish.

Reja:

1. Yoyli elektr pechlarning asosiy turlari
2. Elektrik rejim
3. Jarayonning umumiylashtirilishi


Tayanch so‘z va iboralar: Elektr yoy pechi, issiqlik energiyasi, metall, uch fazali pech, po‘lat, qora metall, eritish, rangli qotishmalar, eritish usullari, suyuqlantirish, vagranka, elektr pechlar, toshqol, koks, gaz, uglerod, faza, cho‘yan, dupleks-protsess.

4.1. Yoyli elektr pechlarning asosiy turlari

Yoyli pechlarda elektr energiyasini issiqlik energiyasiga o‘zgartirish elektr yoyda sodir bo‘ladi, u razryadning gazlardagi bir shakli hisoblanadi. Metallni yoy bilan qizdirishni bevosita, agar yoy elektrod va eritilayotgan metall orasida yonsa yoki nurlanish orqali, qachonki yoy ikki elektrodning orasida yonsa amalga oshirish mumkin. Birinchi turdagani pechlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qizdiruvchi pechlar, ikkinchisini – bilvosita erituvchi pechlar deb atashadi.

Po‘latni eritishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qizdiruvchi pechlar qo‘llaniladi, chunki yuqori haroratlar o‘chog‘i ularda metallning sirtidagiga maksimal yaqinlashgan

va shuning uchun yoyning issiqligi metallga ancha yaxshi sharoitda o‘tadi. Uch fazali pechlar keng tarqalgan, ularda elektrodli, tok o‘tkazuvchili va pechni egishni, ushlab turishni, elektrodlarni siljishini va shixtani yuklashni ta’minlovchi mexanizmli ishchi muhit (pechning o‘zi) mavjud.



Yoyli pechning sxema:

1-ishchi darcha; 2-zaslonka; 3-elektrodlar; 4-gumbaz; 5-devorlar; 6-nov;
7-letka; 8-elektr yoy; 9-taglik

Pechning ishchi bo‘shlig‘i (1-rasm) yuqorida qubbali gumbaz, pastdan sferik taglik va yon tomonlari – devorlar bilan chegaralangan. Taglik va devorlarning o‘tga chidamli taxlami metall g‘ilofga joylashtirilgan. Yechib olinuvchi gumbaz qubbali xalqaga tayanuvchi olovbardosh g‘ishtlardan tayyorlangan. Gumbazdagi simmetrik joylashgan uchta teshik orqali ishchi bo‘shliqqa tok o‘tkazuvchi elektrodlar o‘tkazilgan bo‘lib, maxsus mexanizmlar yordamida pastga va yuqoriga siljishi mumkin. Shixta materiallari pechning tagiga yuklanadi; pechda ular erigandan so‘ng metall va shlak qatlami hosil bo‘ladi. Eritish va qizdirishelektrodlar va metalli shixta yoki suyuq metall orasida hosil bo‘layotgan elektr yoy hisobiga bajariladi. Eritilgan metal va shlak nov orqali pechni engashtirib chiqariladi. Shixtani yuklash ochiq gumbaz orqali tagi ochiladagan kajava yoki pech devoridagi to‘ldirish darchasi orqali muld yordamida amalga oshiriladi.

Metall chiqaruvchi teshiklar aylana yoki to‘rt burchakli kesimda qilinadi; uni metall va shlak satxidan yuqorida ishchi darchanining ro‘parasiga, pastki qirrasi

ishchi darchaning ostonasi satxida joylashtiriladi. Teshikka ulanadigan nov shamotli g‘isht bilan futerovka qilinadi.

Yoyli pechning futerovkasi elektr yoyning nurlanishiga duch keladi, shlak va metallning yemiruvchi ta’sirga, shuningdek, uyumlash vaqtidagi haroratning keskin tebranishi natijasidagi kelib chiqadigan termik ta’sirlar ostida qoladi. Gumbazning futerovkasi arkali gumbazning vertikal ta’sir etuvchi bosim kuchlari natijasidagi qo‘sishmcha yuklanishlarni qabul qiladi. Shuning uchun o’tga chidamli materiallar yuqori olovgabardoishlilik, termobardoshlilik va shlakka barqarorlik xossalariiga ega bo‘lishlari kerak.

Yoyli pechlarni seriyali, 0,5; 1,5; 3; 6; 25; 50; 100 va 200 t sig‘imda ishlab chiqariladi. Cho‘yan quyish sanoatida odatda 40 t gacha bo‘lgan yoyli pechlar ishlatiladi

Elektrodlar. Yoyli elektr pechlarda eritish soatida elektr tokini keltirishda ko‘mirli (5 t gacha bo‘lgan sig‘imli pechlarda) va grafitli (undan kattaroq bo‘lgan pechlardi) elektrolddar qo‘llaniladi.

Ko‘mirli elektrodlarni maydalangan antratsit va toshko‘mir koksini qatlamlarni bog‘lovchi qo‘sishmchali tarkibga ega bo‘lgan massani presslash orqali olinib, keyinchalik 1300 0S haroratda qizdirib toplanadi; ularning solishtirma elektr qarishiligi ancha yuo‘ori (35...60) va ruhsat etilgan tokning zichligi –

Grafitli elektrodlar diametri 75 dan 550 mm gacha tarkibida kuli kam bo‘lgan uglerodli materiallardan (neft yoki qatlamlı (peka) koksdan) tayyorlanib yuqoriqoq haroratda (2600 0S atrofida) qizdirib toplanadi. Bunda uglerodning grafitlanishi sodir bo‘ladi va qo‘sishmchalar uchib ketadi. Bu elektrodlarning solishtirma elektr qarishiligi dan past bo‘lib, bu nisbatan yuqori bo‘lgan tokni zichligini o‘tkazish imkonini beradi (elektrod diametriga ko‘ra oraliqda).

Elektrodlarni silindrik shaklda tayyorlab, yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida yoyli elektrod hosil qilish uchun har bir chetida «arralangan o‘yiq» qirqiladi. Ko‘mirli uglerodlarning sarfi 1 t cho‘yan uchun kislotali jarayon uchun

10-12 kg ni asosiy jarayon uchun 13-15 kg ni, grafitli elektrodlar uchun mos ravishda 4-6 va 5-9 kg ni tashkil qiladi.


Elektrodlarni siqib ushlab turish va siljitish mexanizmi elektrod ushlagich va elektrodnii vertikal yo‘nalishda siljishini ta’minlovchi qurilmadan tashkil topgan (ko‘tarilish tezligi 0,1 m/s va tushish tezligi 0,016-0,025 m/s). Elektrod ushlagich elektrodnii, unga tok kelishi uchun siqish va belgilangan balandlikda ushlab turish vazifasini bajaradi va kallak, siquvchi qurilma va rukavadan tashkil topgan. Elektrodlarni siljitish qurilmasi ikkita variantga ega: karetkali va teleskopik ustunli. Birinchisida elektrod ushlagich karetkaga maxkamlanadi, u vertikal qo‘zg‘almas ustun bo‘ylab yo‘naltiruvchi ramkalarda siljeydi. Ikkinchisida – elektrod ushlagichning rukavasi qo‘zg‘almas ustunga maxkamlangan va u ichi bo‘sh vertikal qo‘zg‘almas ustunda siljiydi. Rukava qalin trubali yoki korobkali banka shaklida tayyorlanib, kallagi bilan karetkaga yoki teleskopik ustunga ulanadi.

4.2.Elektrik rejim.

Yuqorida ta’kidlanganidek, yoy pech vannasida bo‘lgan moddalarning bug‘lari va ionlashgan gazlar qatlami orqali elektr energiyasini o‘tkazish vositasi hisoblanadi, uning harorati 3000 0S dan ortadi. Yoyli pech o‘zgarmas tok bilan iste’mol qilgani uchun har yarim davrda katod va anodlar almashtiriladi, yoyning kuchlanish va tok kuchi maksimumga erishadi va nol orqali o‘tadi. Yoyning quvvati R , va natijada qizdirilayotgan metallga o‘tayotgan quvvat iste’mol qilinayotgan kuchlanish (pech transformatorining ikkilamchi kuchlanishi) va yoyning tok kuchiga bog‘liq bo‘ladi va kabi aniqlanadi.

Eritish jarayonida ikkala parametr rostlanadi – iste’mol kuchlanishi va yoyning tok kuchi. Pechga kelayotgan quvvat pech transformatorining bosqichlarini ulash orqali 110-600 V oralig‘ida rostlanadi. Eritish jarayonida kuchlanishning yuqori bosg‘ichlarida ishlanadi. Bundan tashqari, o‘zgarmas quvvat keltirilayotganda kuchlanishning har bir bosqichida elektr yoyning optimal tok kuchi va quvvatini ushlab turish maqsadida avtomatik rostlagichlardan foydalanib ularning uzunligi rostlanadi. Eritish jarayonida uzun

quvvatli yoylarda ishlash maqsadga muvofiq, chunki ular futerovka uchun uncha xavfli emas (yo‘ eriyotgan shixta quduqlarida joylashgan bo‘ladi). Odatda har bir pech uchun har bir kuchlanish bosqichining yoy maksimal quvvati oldindan aniqlab qo‘yiladi, va uni eritish vaqtida avtomatik quvvat rostlagichi ushlab turadi.



2-rasm. Yoysi pechda suyuq metallni elektromagnitli aralashtirish sxemasi, (a) shlakni tortib olish va (b) vannani aralashtirish rejimida:

1-stator; 2-cho‘lg‘am

Suyuq metallni elektromagnitli aralashtirish qurilmasi sig‘imi 25 t dan yuqori bo‘lgan pechlarda mavjud bo‘ladi (2-rasm).

Aralashtirish tarkibni va haroratni bir xillashtirish, oltingugurtsizlashtirish, nometall qo‘sishimchalarni yo‘qotish va shlakni tortib olishni yongillashtirishni tezlashtiradi. Pechning tubi ostiga magnitsiz po‘latdan ikkita cho‘lg‘amli tub shaklidek egib cho‘zilgan o‘zak (stator) tayyorlangan. Stator cho‘lg‘amlari ikki fazali past chastotali tok (0,5-2 Gs) bilan iste’mollanadi, ularning siljish burchagi 90 0 bo‘lib, metallda yuguruvchi magnit maydon hosil qiladi. Magnit oqimi bilan birgalikda metallda uyurmaviy oqimning ko‘chishi o‘zaro ta’siri metallning pastki qatlamenti ma’lum yo‘nalishda siljishini boshlaydi, metalling yuo‘ori qatlamlari pastki qatlamlarga nisbatan teskari yo‘nalishda siljiydi. Elektr energiyasining sarfi 18-72 kJ/kg ni tashkil qiladi.

4.3. Jarayonning umumiy tasnifi

Yoyli pechlarda metallning suyuqlinishi elektrodlar va metall orasida yoy elektr zaryadlarini yonishidan ajralib chiqayotgan issiqlik hisobiga sodir bo‘ladi. Yoydagи harorat 10000 OS ga yetishi mumkin, shuning uchun jarayon ancha samarali bajariladi.

Marten jarayonlaridan farqli ravishda po‘latlarni eritishda fizik-kimyoviy reaksiyalarda asosan metalli va shlakli faza ishtirok etadi. Pechga kislorod uchun yo‘l ancha cheklangan.


Mavjud po‘lat erituvchi jarayonlardan elektroeritish usuli keng tarqalgan bo‘lib, eng zo‘r sifatli va barcha markadagi po‘latlarni eritish imkoniga ega(0,5-2 Gs).


Elektr yoyli pechlarda qizigan shlak mavjud bo‘lib, undan zarali aralashmalarni chiqarib tashlash va metallga zarur bo‘lgan elementlarni kiritish mumkin.

Po‘latni elektr yoyli pechlarda eritish jarayoni quyidagi davrlardan tashkil topgan: yuklash va eritish, oksidlash, qayta tiklash va oksidsizlantirish davrlari.

Jarayonning fizik-kimyoviy tasnifi

Eritish va o‘ta qizdirishda aralashmalarning oksidlanishi sodir bo‘ladi. Oksidlanish uchun kislorod asosan temir rudasidan keladi, u yuklanishga maxsus kiritiladi va zaruratga ko‘ra qo‘shib turiladi yoki metallga toza kislorod purkab turilishi mumkin. Elementlar quyidagi reaksiyalar asosida oksidlanadi






(7)

Elektr yoyli eritishda oksidlanish davrining mavjudligi majburiy emas. Metallurgiyada jarayonning uchta turini farqlaydilar: aralshmalarning to‘liq, qisman oksidlanishi, aralashmalarning oksidlanmasligi. Oddiy uglerodli po‘latlarni eritishda jarayon ralarashmalarni oksidlash bilan olib borilib, bu ancha ifloslangan shixta materiallarini qo‘llash va defosforatsiya va desulfuratsiya jarayonlarini amalga oshirish imkonini beradi. Aralashmalarni oksidlamasdan eritish jarayoni legirlangan po‘latlarni olishda qo‘llanilib, bungan sabab legirlovchi elementlarni saqlab qolish. Bunda shixtaga yuqori talablar qo‘yiladi.

Shixtani eritish bosqichlari 3-rasmida ko‘rasatilgan. Dastlab yoy shixta va elektrod orasida yonadi, yuqo‘orida ta’kidlanganidek, yoyni barqarorligini oshirish uchun eritishning birinchi daqiqalarida elektrodlar ostiga koks parchalari yoki elektrod siniqlari qo‘yiladi. Ular yonib bo‘lgandan so‘ng metall erishni boshlaydi va tomchi xolda tubga oo‘ib tushadi. Shixtada quduqlar xosil bo‘ladi va ular bo‘ylab elektrodlar vannaning tubiga yetmaguncha chuqurlashib boradi va bu vaqtda metall erigan qatlami xosil bo‘ladi.



3-rasm. Yoyli pechlarda shixtani eritish bosqichlari: a-eritishning boshlanishi;

b-quduqlar hosil qilish; v-eritishni tamomlash

Elektrodlar bilan suyuq metall xosil qilish mobaynida pechga shlakni xosil qilish uchun bir necha marta quruq kvars qumi solinadi, bu eritishning oxirida suyuq cho‘yan massasining 4-5% tashkil qiluvchi miqdorda normal shlak qoplamasiga ega bo‘lish uchun qilinadi. Elektrod va suyuqlangan metall oraisda yonayotgan yoy metalni yanada qizdiradi va quduqning atrofidagi shixtani o‘pirilishiga va erishiga olib keladi. Quduqlar kengayadi, vannadagi erigan metallning satxi ortadi, elektrodlar esa sekin-asta ko‘tariladi. Bu davrning oxirida metallning deyarli barchai erib bo‘ladi, vannaning chetlarida alohida bo‘laklar qolishi mumkin va ular oxirida eriydi. Eritish davrini qisqartirish uchun bu bo‘laklar lom bilan pechning markaziga itarib turiladi.

Eritish jarayonida shixta bo‘laklarining payvandlanishini oldini olish uchun, ya’ni «ko‘priklar» xosil bo‘lishini, chetdagi shixtaning bo‘laklarini o‘z vaqtida suyuq vannaga itarib yuborish kerak. Shixta bo‘laklari payvandlanib qolganda tokni o‘chirish kerak, elektrodlarni ko‘tarib, gumbaz ochiladi, xosil bo‘lgan quduqlarga mayda shixtalar tashlanadi va ular eritiladi. Kam zichlikka ega shixta materiallari bo‘lgan xolda pechda o‘tirib qolgan shixtaga eritishning boshlanishida massasi bo‘yicha zarur miqdordagi shixtani yuulash mumkin. Eri gan metallga shixtani yuklash qat’iyan man etiladi, chunki bunda suyuo‘ metall pechdan sachrab ketishi mumkin.

Pechning ishchi darchasi qoqpog‘i eritish vaqtida zikh yopilgan bo‘lishi kerak. Uni ochishga faqat shixta pechning chetlaridan itarib tashlash, shlakni chiqarish, qo‘srimchalarni kiritish va namuna olish uchun ruhsat etiladi.

Eritishning butun jarayoni davomida metall vannasining qaynab ketishiga yo‘l qo‘ylmaslik kerak. Buning oldini olish uchun shlakka ikii uch lopatka maydalangan koks, elektrod siniqlari yoki yog‘och ko‘miri parsalari qo‘sib turiladi. Eritish jarayoni barcha shixta suyuq xolga o‘tganda yakunlangan hisoblanadi. Bu momentga kelib yoyning yonish rejimi ancha barqaror bo‘ladi, chunki metallning harorati ortadi va uning sirti shlak qatlami bilan qoplangan bo‘ladi. Bu davrda yoyning uzunligi eritishning boshiga nisbatan bir necha barobar ortadi va yoy barqaror yonadi. To‘liq eritishdan 10-15 daqiqa oldin

metallni o‘ta qizishi va pechning devor va gumbazini erishini oldini olish uchun transformatorni «uchburchak»dan «yulduzcha»ga qayta ulash yo‘li bilan keltirilayotgan quvvatni kamaytirish lozim.

To‘liq eritilgan va qo‘shimchalar qo‘shilgandan so‘ng shixtaning hisobiga ko‘ra vanna yaxshilab aralashtiriladi va ekspress-analiz uchun proba olinadi. Pechga ferrosilitsiyani eritishning xoxlagan vaqtida kiritish mumkin, chunki kislotali pechda kremniyning kuyishi sodir bo‘lmaydi.

1-jadval. Elektr yoyli pechlarda eritishda suyuq cho‘yanning tarkibini korrektirovka qilish

T/r №	Tarkibning o‘zgarishi	Qo‘shimcha	1 t metall uchun miqdori, kg	
			Kislotali jarayon	Asosiy jarayon
1	S 0,1%ga ortganda	Elektrod parchasi, granulali grafit	1,60	1,35
2	Si 0,1%ga ortganda	Ferrosilitsiy FS45 Ferrosilitsiy FS75	2,75 1,35	2,95 1,65
3	Mn 0,1%ga ortganda	Ferromarganets FMn75	1,35	1,30
4	S 0,1%ga kamayganda	Po‘lat lom, ferrosilitsiy FS75	30 0,70	30 0,80
5	Si 0,1% ga kamayganda	Po‘lat lom, Elektrod parchasi	60 1,90	60 1,70

Ferromarganetsni kislotali pechga metallni chiqarishdan oldin kiritiladi, chunki kislotali shlak ostida marganets tex oksidlanadi va MnO shlakning qumtuproq siliati bilan bog‘lanadi. Marganetsning kuyishi 25-30% ga yetadi va metallning harorati, shlakning tarkibi va pechda ferromarganets qo‘shilgandan keyin suyuq cho‘yanni ushlab turish muddatiga bog‘liq (1-jadval).

Ferroxrom pechga yaxshilab qizdirilgan cho‘yanga va normal oksidlanmagan shlakda kiritiladi.

Nikelning asosiy qismi shixta bilan kiritiladi, chunki u deyarli oksidlanmaydi va uning miqdori eritish jarayonida meyoriga yetkaziladi. Eritish

jarayonida elektrolitli nikelning tarkibidagi vodorodning ko‘p qismi yo‘qolib ketadi, shuningdek granulali nikelning namligi ham.

Ferrofosfor kuyishsiz o‘zlashtiriladi, shuning uchun uni eritishning boshlang‘ich davrida kiritish mumkin. Titan ham kislotali ham asosiy pechda oson oksidlanadi, va uning kuyishi 45-50 % ni tashkil etadi, shuning uchun ferrotitan suyuq cho‘yanga pechdan chiqishdan oldin qo‘shiladi. Ferrotitan zichligi cho‘yanning zichligidan past, shuning uchun kuyishni kamatirish maqsadida ferrotitan bo‘laklari suyuq cho‘yanga temir shtangalar yordamida cho‘ktiriladi.

Kimyoviy tarkib korrektirovka qilingandan so‘ng ekspress-analiz uchun metalldan ikkinchi proba olinadi. Kimyoviy tarkib qo‘yilgan talablarga mos kelganda cho‘yan belgilangan haroratgacha yanada qizdiriladi va eritishda chiqariladi. Cho‘yanni pechdan chiqarishdan oldin tok o‘chiriladi, elektrodlar ko‘tariladi, shlak yaxshilab tozalanadi va cho‘yan aralashtiriladi.

Yoyli pechlarda shlakli eritish rejimi yoyning zonasida suyuq metallning o‘ta qizishi tufayli qaynashini olidni olishni nazarda tutishi kerak, bunda quyidagi reaksiya sodir bo‘ladi

(8)

Suyuq metallni qaynashini oldini olish uchun odatda, shlakdagi FeO ning massaviy ulushi 10-12 %dan ortmasligiga harakat qilinadi. Unda muvozanat shartiga ko‘ra metall va shlak o‘rtasida FeO ni qayta taqsimlash (metalldan shlakka) sodir bo‘ladi va metallning qaynashi kuzatilmaydi. Shlakda FeO ning miqdorini kamaytirish maqsadida pechga doimiy oksidsizlantiruvchilar qo‘sib turiladi (ko‘mir, elektrod siniqlari va sh.k.). Shlakning suyuq xolda qo‘shg‘alishini oxak va oxaktoshni shlakning massasiga nisbatan 10-15% miqdorda qo‘shish bilan rostlanadi. Kislotali shlakdagi SaOning massaviy ulushining maqbul qiymati 6-8% dan tortmasligi kerak. Qumning o‘rniga ishlab bo‘lgan quyma shakning aralashmasini ishlatsa bo‘ladi (yoki 50% qum 50% ishlab bo‘lgan aralashma). Oxakning o‘rniga asosiy martin shlaki, shamot siniqlari (ishlatilgan g‘isht, stoppor quvurlari va boshq.) qo‘llaniladi.

Normal ksilotali suyuq shlak ipga o‘xshab cho‘zilishi mumkin, sovuq xolda zich siniq xolda xarakterli rangga ega (yorqin yashil yoki yorqin jigar rang). Oksidlangan shlak qattiq xolda qora va pufakchali siniq xolida bo‘ladi. Agar shlak eritish davrida qo‘yilgan talablarga javob bermasa uni qisman yoki to‘liq tortib tashlash va normal shlak kiritish kerak. Shlakni tortib chiqarish vaqtida pech o‘chiriladi, elektrodlar, ularni sinishni oldini olish uchun ko‘tariladi. Kislotali shlakning tarkibi %da o‘uyidagicha: SiO₂ – 60-70; CaO – 3-20; MgO – 1-5; FeO – 6-12; MnO – 1,2; Al₂O₃ – 0,25-4.

Yuklovchi kajavaga bevosita shixta massasining 0,5 % miqdorida oshaktosh solinadi. Shixta eritilgandan so‘ng eritmaning oynasiga oxak (oxaktosh) va massasi bo‘yicha 4:1 nisbatdagi plavika shpatidan tashkil topgan shlak solinadi. Oxak bo‘laklarining o‘lchami 40 mm gacha, plavika shpatiniki – 20 mm gacha. Asosiy pechda karbitli shlakda asosan kremniy oksidlanadi; uning kuyishi 10-15 %, ba’zan undan ham ko‘pni tashkil etadi. Asosiy pechda uglerod, xrom, nikel, molibden, mis va fosforlarning kuyishini hisobga olmasa bo‘ladi. Eritish to‘g‘ri olib borilsa, metallni o‘ta qizdirganda va ushlab turganda ham elementlarning kuyishi sodir bo‘lmaydi.

SaS₂ hosil qilish uchun pechda yuqori harorat, musbat bosim va oksidsizlantiruvchi shlaklardan qo‘shimcha qo‘shish talab etiladi (elektrod siniqlari, ko‘mir, kremniy karbidi). Shuning uchun ishchi darchaning zaslondasini loy bilan zich yopiladi, elektr yoy ulanadi va 20-30 daqiqa davomida intensiv qizdirish olib boriladi, chunki karbidli shlakni hosil qilish jarayoni yuqori miqdordagi issiqlikni yutilishi bilan boradi.

Nazorat savollari:

1. Elektr yoy pechining ishlash prinsipi kanday?
2. Elektrod nima?
3. Elektrod turlarini sanab bering?

4. Po‘latni elektr yoyli pechlarda eritish jarayoni qanday davrlardan tashkil topgan?
5. Elektr rejimi parametrlari qanday?

Adabiyotlar

1. S.A.Rasulov, N.D.Turaxodjayev Metallurgiyada quyish texnologiyasi, o‘quv qo‘llanma. “Cho‘lpon”, Toshkent,2007, 209.
2. Rasulov S.A., Turaxodjaev N. D. Metallurgiyada quyish texnologiyasi –T. : Cho‘lpon, 2007.- 215s.
3. Texnologiya liteynogo proizvodstva, lityo v peschanie formi, Uchebnik, pod red. A.P.Truhova, Akadema, 2005, 525.


IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot . uymakorlik qoliqlarini loyixalash prinsiplari.

Ishdan maqsad: Quymakorlikda qoliplash uchun qolip gillari bilan tanishib chiqish xamda ularni bog‘lovchi moddalarinng turlarini aniqlash Qolip va o‘zak materiallarinig tarkibi, ularga qo‘yiladigan talablar va qorish mashinasining tuzilishi, ishlash jaroyoni bilan tanishish.

Nazariy qism. Bir martalik qolip tayyorlashda foydalilaniladigan asosiy material qum xisoblanadi. Qum donalari bilan bir – biriga puxta bog‘lovchi moddalar sifatida gil, moy, bitumlar, deksterin, sun’iy smolalar, suyuq shisha, sudfid bardasi va boshqalar ishlatsa, qolip materiali qo‘yib, quymaga yorishmasligi uchun grafit, ko‘mir kukuni, kvarts changi va boshqalar qo‘llaniladi.

Quyma sifatli chiqishi uchun qolip materiallariga quyidagi talablar qo‘yiladi: plastik, puxtalik, gaz o‘tkazuvchanlik, o‘tga chidamlilik, siquvchanlik, chidamlilik va arzonlik.



O'zakni qo'lda tayyorlash.

Qolip sumi tog‘ jinsi bo‘lib, tarkibi tabiiy kvars, gil va boshqa birikmalar zarralari aralashmasidan iborat. Qum tarkibidagi zararli qo‘sishimchalar (MgO , FeO va boshqalar) uning o‘tga chidamliligini pasaytiradi va quymaga quyib yopishishiga sabab bo‘ladi.

Gilli moddalar 50% dan ortiq bo‘lib, suvda qorishganda qum donalarini bog‘lash xususiyatiga ega bo‘lgan o‘tga chidamli jinslar qolip gili deb ataladi.

Gilli moddolarning asosi plastik va qovushqoq kaolinit (Al_2O_3 , $2SiO_3$, $2H_2O$) yuo‘lil, undan tashqari ularda Fe_2O_3 , $CaCO_3$, $MgCO_3$, K_3CO_3 , Na_2CO_3 moddalari xam bo‘ladi.


Gil tabiatda juda ko‘p tarqalgan arzon materialdir. Maxsus bog‘lovchi moddalarni esa organiq (moylar, smolalar, neftni qayta ishlash maxsulotlari va boshqalar) va anorganiq (sement, suyuq shisha, sulfit ishqori, deksterin va boshqalar) moddalarga bo‘lish mumkin.

Bir marta ishlatiladigan qolip materiali, turli bog‘lovchi va qo‘sishimcha moddalar ma’lum nisbatda suv bilan qorishtiriladi.

Tayyorlangan qolip materiallari belgilangan tartibga ko‘ra suv bilan maxsus qorishtirish mashinasi (begunlar) dan foydalanib qorishtiriladi. Qorishtirish mashinasi 2 ta katokdan iborat, katoklar bilan tog‘ora orasida ma’lum bo‘shliq bo‘lib, bu oraliq qum donalarinr mayda – yirikligiga qarab, kichraytirilishi yoki kattalashtirilishi mumkin. Bu xam qum donalarini maydalamanay turib, ularni

qorishtirishga imkon beradi. Kataklar 3 va 5 vertikal o‘q 1 atrofida, tog‘aradagi materialga ishqalanish xisobiga gorizrntal o‘q atrofida xam aylanib, qolip materialni qorishtiradi.

Qolip materiallari katok yonida vertikal 1 o‘q atrofida aylanuvchi maxsus surgichlar 2 va 4 vositasida surib turiladi. Tayyorlangan material maxsus moslama 8 yordamida quti 7 ostidagi teshikdan ishlatish uchun uzatiladi.



Sterjenlarning o‘rnatilishi:

a – vertikal o‘rnatilgan; b- gorizontal o‘rnatilgan

Ishni bajarish tartibi:

1. Qorishtirish mashinasining tuzilishi va ishlash jarayoni bilan tanishiladi.
2. Qorishtirgichga gil, suv va qolganiga kvars qumi qo‘shib qolip qorishmasi tayyorlanadi.
3. Olingan natijalar jadvalga to‘ldiriladi.

Qorishtirgich markasi	Qismlari va uning vazifalari	Qolip aralashmasini ng tarkibi	Tarkibi, og‘irligi % xisobida	Qorishtirish davomiyligi

Nazorat savollari:

1. Quyma tayyorlab olish texnologik jarayonini so‘zlab bering.
2. Qum- gilli qolipga cho‘yan quyish usuli qanday bajariladi?

3. Qum- gilli qoliplar haqida nimalarni bilasiz?
4. Qolip tayyorlab olish ketma-ketligi.
5. Qolipdash nechta opokada ishlab chiqariladi?

2-amaliy mashg‘ulot. Suyuq metallni tayyorlab olish va qolipga

quyish. Induksion pechida po‘latni suyuqlantirish

Ishdan maqsad: Induksion pechida materiallarni suyuqlantirishda shixtani kimeviy tarkibini hisoblash va suyuqlantirish jarayonlarini o‘rganish. Induksion elektr pechida po‘latni suyuqlantirib olish texnologiyasini o‘rganish.

Umumiylumotlar.

Quyidagi tartibda shixta ashyolari hisoblanadi. Shtamplar uchun ishlatiladigan 7X3 markali po‘latnn kislotaviy pechda eritib olish uchun shixta ashyolarini hisoblashni ko‘rib chiqamiz. Po‘latning kimyoviy va elemetlar bo‘yicha miqdori 1-jadvalda keltirilgan:

1- jadval

Elementlar miqdori

Materiallar	Kimyoviy miqdori					
	S	Mn	Si	P	S	Cr
GOST 5950-73 bo‘yicha 7X3 po‘latni kimeviy tarkibi	0,6-0,75	0,2-0,4	0,15-0,335	0,035	0,03	3,3-3,8
Hisoblash uchun kiritilgan aniqliklar	0,7	0,3	0,3	0,015	0,125	3,5

Hisoblashda har bir elementning o‘rtacha qiymati olinadi.

Shixta materiallarini barchasi 200 kg teng deb 100% hisoblaymiz. Kerakli materiallar:

- Marten po‘lati chiqindilari M StZ (kimyoviy tarkibi: 0,18%S, 0.5%Mp, 0,20%Si, 0>030%R, 0,030%3);
- 75 markadagi feeromarganets (kimyoviy tarkibi; 0,7%S, 75%,Mn; 2,0%; Si 0,45%R; 0,03%S).
- FS 75 markali ferrosilitsiy.
- FX 001 markali ferroxrom (kimyoviy tarkibi; 0,01%S; 0,72%Si; 0,02%S; 0,0ZR; bZ,b%Sr).
- Elektrod qoldig‘i.
- 7X3 po‘latda suyuqlantirilgandan keyin lozim bo‘lgan elementlar massasini aniqlaymiz;

$$C = \frac{200 \times 0,7}{100} = 1,4\kappa\varrho; Mn = \frac{200 \times 0,3}{100} = 0,6\kappa\varrho$$

$$Si = \frac{200 \times 0,3}{100} = 0,6\kappa\varrho Cr = \frac{200 \times 3,5}{100} = 7\kappa\varrho$$

$$P = \frac{200 \times 0,015}{100} = 0,03\kappa\varrho S = \frac{200 \times 0,025}{100} = 0,05\kappa\varrho$$

Qolgani temir.

Demak 7X3 markali po‘lat tarkibida (quyidagilar bo‘ladi (kg));

S-14; Mn-0,16; 81-0,66; Sr-7; R-0,03; 3-0,05;Fe-190,32. (Xammasi 200kg)

M StZ marten pulatida temirning mikdori 99,510% тенг,

$$\text{demak shixtaga } \frac{190,3 \times 100}{99,51} = 191\kappa\varrho \quad \text{qo‘shish kerak.}$$

M StZ marten po‘latni chiqindilarini tarkibiy miqdorini aniqlaymnz (kg):

$$C = \frac{191 \times 0,18}{100} = 3,35; Mn \frac{191 \times 0,3}{100} = 0,96$$

$$P = \frac{191 \times 0,030}{100} = 0,006 \text{ Si} = \frac{191 \times 0,030}{100} = 0,006$$

Ferroxromning miqdorini aniqlaymiz.

$$\frac{7,0 \times 100}{68,6} = 10,2 \kappa\varrho \quad 5\% \text{ kuyishi hisobi bilan} \quad \frac{10,2 \times 100}{50} = 0,32 \kappa\varrho$$

Marten po'lati bilan kiritilayotgan Mn mikdori 0,96 kg, bu raqam hisobdagidan 0,36 kg ga ko'proq, lekin kislotaviy jarayonida marganetsning kuyishi 50% ga teng, demak yana 0,12 kg marganets qo'shishimiz kerak, Ferromarganetsning kerakli miqdorini aniqlaymiz;

$$\frac{0,12 \times 100}{75} = 0,16 \kappa\varrho \quad \text{kuyishni hisobga olib} \quad \frac{0,16 \times 100}{50} = 0,32 \kappa\varrho$$

Shuningdek kerakli ferrosilitsiyning miqdorini ham aniqlaymiz; hisob bo'yicha 0,6 kg kremniy bo'lishi kerak, marten po'lati chiqindilari bilan 0,38 kg qirindilari, yetmaydigan miqdori 0,6-0,38+0,22 kg tashkil qiladi,

$$\text{Qo'shiladigan ferrosilitsiyni miqdori} \quad \frac{0,22 \times 100}{75} = 0,29 \kappa\varrho, \quad 20\% \text{ qo'shishni hisobga olganda} \quad \frac{0,29 \times 100}{80} = 0,36 \text{ kg kiritilish lozim.}$$

Ferrosilitsiy va ferromarganets bilan kiritiladigan S miqdori kam bo'lgani uchun uni hisobga olmaymiz shixtaga, kiritiladigan elektrod chiqindilari miqdorini aniqlaymiz,

Kuyishni hisobga olib:

$$\frac{1,05 \times 100}{100} = 1,05 \kappa\varrho \quad 5\% \text{ kuyishi hisobga olib;} \quad \frac{1,05 \times 100}{95} = 1,1 \kappa\varrho$$

Shunday qilib 200 kg 7X3 po'lat olish uchun shixta tarkibiga quyidagi materiallarni kiritish kerak (kg):

Marten po‘latni chikindilari: MS 191,00

FX001 markali ferroxrom: 10,70

FMn75 markali 0,32

ferroxmarganets:

75% li ferrosilitsiy 0,36

Elektrod chiqindisi: 1,10

Жами: 103,46

Eritish paytida metallning umumiy kuyishi 2%ya’ni 4 kg ga teng. Suyuq, metaldagi S va R miqdori shixta materiallardagi miqdoriga bog‘lik chunki kislotaviy jarayonda ularni kamaytirish mumkin emas.

Induksion pechida po‘lat eritib olish texnologiyasi.

Induksion pechida materialarni suyuqlantirishda shixtani kimeviy tarkibini aniqroq; hisoblash kerak va shixta materiallarida R va S miqdori kamroq, bo‘lishi kerak, chunki tez kechayotgan suyuqlantirish jarayonida uni o‘zgartirish qiyinroq bo‘ladi.

Eritish jarayoni boshlanishida pech kam kuvvatda ishlaydi va shixta qizigandan keyin to‘liq quvvatga qo‘shiladi.

Kuyishni kamaytirish maqsadida eritish tez olib boriladi. Suyuqlantirish jarayonida qolgan toshqollardan pech ichida osilib qolgan shixta materiallaridan «kuprik» bo‘lishini oldini olish kerak.

Ferroqotishmalarni qo‘sishdan oldin yaxshilab qizdiriladi, chunki namlik portlashga olib kelishi mumkin.

«Kuprik» hosil bo‘lganda plavik shpatli flyus yuklanib qizdirilgandan so‘ng urib tushiriladi. Agarda bu yaxshi natija bermasa pechni pastgi qismida pech qizib kuyishi mumkin.

Shixta suyuqlangandan so‘ng kislorodni chiqarish jarayoni amalga oshiriladi (raskislenie). Kislorodsizlantirish asosan toshqol orasida oksidlantiruvchi kiritish bilan oshiriladi.

Oksidlantiruvchi sifatida: ferromarganets, ferrotsilitsiy, ferrotitan, alyuminiy, silikokalsiy ishlataladi.

Kislorodsizlantirish jarayoni amalgal oshirilgandan keyin suyuq, metallni temperaturasi o‘lchanadi, buning uchun asosan volframolibdenli yoki platinorodiyli termoparalar ishlataladi

Suyuq, metallni kuyib olish (pechdan chiqarish).

Suyuq, metallni pechdan $700\text{-}800^{\circ}\text{S}$ darajagacha qizdirilgan, 50-60 kg li kovshlarga quyib olinadi. Suyuq, metallni olishdan oldin uning ustki qatlamidagi toshqol olib tashlanadi. Agarda toshqol quyuq bo‘lsa uning ustiga maydalangan shixta qo‘shiladi. Po‘lat qum-gilli tuproqda qoliplarga yoki izlojnitsalarga qo‘yiladi.

Ishni bajarish tartibi:

- 1.Induksion pechni konstruksiyasi va ishlashi.
- 2.Ko‘rsatilgan kimyoviy tarkibdagi po‘lat olish uchun shixta materiallarini hisoblash.
- 3.Shixta materiallarini o‘lhash va pechga yuklash.
- 4.Metallni suyuqlantirish, temperaturasini o‘lhash va tekshirish uchun namunalar olish.
- 5.Qoliplarni namuna olish uchun tayyorlash.
- 6.Suyuq metallni kovshga chiqarish va namunalar olish uchun, qolipa quyish.

Nazorat savollari.

- 1.Po‘lat shixtasini hisoblash metodi.
- 2.Suyuqlantirishda elementlarni quyishi va ko‘payishi
- 3.Suyuqlantirish texnologiyasi.
- 4.Po‘latni suyuqlantirish texnologiyasi.
- 5.Po‘latni suyuqlantirishda berilgan shixta materiallarini kimyoviy tarkibini hisoblash.

3-amaliy mashg‘ulot. O‘zak va qolipni tayyorlash.

Ishdan maqsad: Qolip va o‘zak materiallarinig tarkibi, ularga qo‘yiladigan talablar va qorish mashinasining tuzilishi, ishlash jaroyoni bilan tanishish.

Umumiy ma’lumotlar.

O‘zaklar asosan kuymalarda teshik va kovaklarni, shuningdek murakkab konstruksiyali kuymalarning tashki sirtlarini tayyorlash uchun ishlatiladi. Uzaklar kolip kuyish paytida, xar taraflama suyuk metall bilan urab olinadi, shuning uchun ular yukori darajada gaz utkazuvchanligiga ega bulishi kerak, bundan tashkari, mustakkamlik, moslashuvchanlik va uriluvchanlik uzak aralashmasi va uzak konstruksiyasi tarkibini ta’minlashi zarur. Kolipda turgun xolatni ta’minlash va kuyma uzakning anik shakli kerakli burtik sonlarga ega bulishi kerak.


Kolipa metall kuyilganda uning devorlari, ayniksa, panjaralar tezda kiziydi va katta mikdorda gaz ajratib chikaradi. Formaning ichki bushliklaridagi gazlarni sirtga chikarish uchun gaz chikaruvchi ventilyatsiya kanallari xizmat kiladi.

Yagona va kichik kajmdagi kuymalarni ishlab chikarish sharoitida uzaklar uzak kutilari va shablonlar yordamida kulda tayyorlanadi. Katta va keng kulamli ishlab chikarish majmualarida uzaklar turli xil mashinalarda ishlab chikariladi: silkituvchi, presslovchi, kumotuvchi, kumpuflovchi, impulsiv, mundshtukli va boshkalar.

O‘zaklarni ishlab chikarishda kum puflash mashinalari keng kullaniladi, bu esa mayda, urta va barcha murakkablikdagi koliplarni ishlab chikarishda yukori sifatli bulishiga xizmat kiladi (1-rasm). Sikilgan xavo, kum puflash mashinasining kallagi orkali utib (rezervuar) uzak aralashmasi bilan tuldirilgan, kallakning pastki kismidagi teshiklari va kum puflash plitasidagi aralashmani uzak kutisiga tashlaydi va uni tuldiradi. Xavo kutining kum bilan koplangan zonasi orasidagi tekisligi buylab va kumpuflash plitasi orkali shuningdek, kuti devorlarida xosil bulgan teshiklari orkali okib chikadi. Xozirgi vaktda suyuk tez kotuvchi aralashmalardan uzaklar tayyorlashning texnologik jarayonlari kullanilmokda.

Aralashmaning uzini mustaxkamlash kobiliyati uzakni kizdirishni

chetlatadi. Uzini mustaxkamlovchi aralashmalarining asosiy texnologik xossasi bu yukori okuvchanlikdir, bu esa ularni kutiga kuyish va zichlanmagan uzak olish imkonini beradi. Aralashma kvars kumi, suyuk shisha va okuvchanlikni ta'minlovchi kupikli moddadan tashkil topgan. Mikserdan aralashma tugridan-tugri uzak kutilariga kuyiladi. Tutib turilgandan sung 20-30 dakika oraligida aralashma kotadi, uzak kutidan ajratiladi, kesiladi, buyaladi va yigishga beriladi.




Rasm.1. Uzaklarni tayyorlashning qum puflash usuli. 1 — aralashma uchun bunker; 2 — sopsots; 3 — rezervuar; 4 — uzak aralashmasi; 5 — sum puflash plitasi; 6 — ventlar; 7—uzak kutisi

Uzaklar tayyorlangandan sung odatiy aralashmadagi yirik koliplar gaz utkazuvchanligini oshirish, mustaxkamligini va gaz xosil kilish kobiliyatini pasaytirish maksadida kuritiladi. Kuritishning davomiyligi xaroratga, uzak va koliplarning kalinligi, kuritishda issiklik utkazuvchanlik shartlariga boglik va bir necha dakikadan bir necha soatgacha uzgaradi. Kolip va uzaklarni samarali kuritish uchun, kuritish xonasida xaroratning asta-sekin usishi va keyin butun kuritish davrida yagona maksimal ruxsat etilgan xaroratning saklanishi, shuningdek, fen mashinasining butun xajmi davomida bir xil gaz okishini ta'minlash talab kilinadi.

Yogli boglovchilar va ularni urnini bosuvchi uzaklarni kuritish jarayonida namlikning buglanishidan tashkari, oksidlanish va polimerizatsiya jarayonlari

xam sodir buladi. Oksidlanish jarayoni neftni tashkil etuvchi uglerod atomlari orasidagi boglanishni buzishdan va kislorodni unga boglashdan iborat. Kimyoviy boglanishlar natijasida, bundan tashkari kizdirish vaktida yogdan ba'zi tarkibiy kismlar ajralib chikadi va kalin yopishkok massaga aylanadi natijada kum donalarini boglovchi mustaxkam plyonka xosil buladi. 150-220°C gacha oksidlanish jarayonida yog 20-30% kislorodni yutadi. Buning natijasida, issiklik ajraladi, bu esa uz navbatida yoglarning oksidlanishini tezlashtiradi va uzaklar temperaturasini oshiradi.



Rasm. 2. Uzaklarning belgili sismlari: a — vertikal, b — gorizontal Sun'iy termoreaktiv smolalardan ishlab chikarilgan uzaklar kuritishdan keyin va isitilgandan sung, suvga solinadi va suvda erimaydigan xolga keladi. Ushbu boglovchilarda uzaklarni kuritish xarorati 150-160°S ga teng.

Pekmezni va kraxmalni uz ichiga olgan aralashmalar ni 165-190°S darajasida kuritilishi tavsiya etiladi, natijada suvni yukotgandan sung saxaroza xosil buladi aralashmalarda esa sulfit katلامи bulgan smolalar xosil buladi. Ularning ikkalasida xam yopishkoklik kobiliyati bor.

Gil, gips yoki sementdan tayyorlangan aralashmalar 350-400°S da kuritiladi va 200°C da bentonit koldiklaridan foydalaniladi. 350-400°C gacha bulgan kumli-gil shakllarini kuritish muddati 5 dan 36 soatgacha.

Ishni bajarish.

Ishni bajarishda talabalar quymalarni kolleksiyasidan foydalanishadi. Bu nuqsonlar qolip va o'zak tayyorlashda qo'yilgan xatolar va tayyorlangan suyuq

metalni sifati, qo‘yish texnologiyasi, qoliplarni sifatiga bog‘liqdir. Talabalar quymalarda nuqsonlarini, uni keltirgan sabablarini, ayniqsa suyuqlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan va jadvalda keltirilgan klassifikatsiyaga muvofiq o‘rganishadi.

Nazorat savollari:

1. Quyma tayyorlab olish texnologik jarayonini so‘zlab bering.
2. Qum- gilli qolipga cho‘yan quyish usuli qanday bajariladi?
3. Qum- gilli qoliplar haqida nimalarni bilasiz?
4. Qolip tayyorlab olish ketma-ketligi.
5. Qoliplash nechta opokada ishlab chiqariladi?

V. GLOSSARI

Термин	Ўзбек тилидаги шарҳи	Инглиз тилидаги шарҳи
Metall	O‘zidan issiqlik va elektr toki o‘tkazuvchi yaltiroq elementli modda	A shiny elemental substance that conducts heat and electricity by itself
Metallurgiya	Metallar va qotishmalar xaqidagi fan. Fizik metallurgiya metallarning fizik va mexanik xususiyatlarini o‘rganib, ularga ishlov berishni o‘rgatadi.	The science of metals and alloys. Physical metallurgy studies the physical and mechanical properties of metals and teaches how to process them.
Grafit	. Kukunsimon grafit, tigel tayyorlashda ishlatiladigan aralashma	Powdered graphite is a compound used in the preparation of crucibles
Metallurgik jarayon	Metallarni rudadan ajratib roli shva ularga ishlov berish fani	The role of separation of metals from ore and their processing
Qum	Qum. kvars qumi quymakorlikda ishlatilinadigan	Sand. quartz sand used in pottery
Suyuqlantirish	Boyitilgan rudadan suyuq metallni suyuqlantirib olinish jarayoni	The process of liquefaction of liquid metal from enriched ore
Po‘lat	Temir asosli qotishma	Iron-based alloy
Vipor	. Gaz chiqarish uchun kichiq teo‘ik	A small teoik for gas extraction
Elak (Sito)	Qumni donadorligini o‘lchaydigan elak	A sieve that measures the granularity of sand

Skrap, lom	. Nuqonli quylgan detal, qayta suyuqlantirishga ishlataladigan material	The stainless steel part is the material used for re-liquefaction
Quymakorlik Casting	Metallarni suyultirib, tayyor qoliplarga quyib maxsulot olish texnologiyasi va usullarini o'rgatadi	Teaches technology and methods of obtaining products by liquefaction of metals and casting into finished molds
Flyus Flus	Eritish pechlariga tashlanadi, unda kerakmas jinslar va kuch bilan birikib shlak xosil qiladi	It is thrown into the melting furnaces, where it combines with unnecessary jeans and force to form slag.
Shlak Slag	Nometal sifatida vaqtı - vaqtı bilan pechdan chiqarib tashlanadi	As a mirror, it is removed from the oven from time to time
Po'lat Steel	Uglerodning temirdagi qattiq eritmasi, uglerod miqdori 2,14 % dan oshmaydi.	Solid solution of carbon in iron, the carbon content does not exceed 2.14%.
Duralyumin Duralumin	Mis bilan alyuminiy qotishmasi	Aluminum alloy with copper
Quyma cho'yan Cast iron	To‘g‘ridan-to‘g‘ri quyilib detall olinadi	Direct casting details are obtained
Cho'yan Iron	Uglerodning temirdagi qattiq eritmasi, uglerod miqdori 2,14 % dan ko‘p foydalanib ishlov berish	Solid solution of carbon in iron, processing using more than 2.14% carbon content
Koks Soke	Kokslanuvchi toshko‘mirlardan maxsuspechlarda xavfsiz sharoitda 1000-1100 gacha qizdirish yo‘li bilan olinadi. Koksni issiqlik berish darajasi 7000-8000 k kal /kg Koks pechlarda 12-18 soat	Coing coal is obtained by heating 1000-1100 in safe conditions in special furnaces. The heat transfer rate of coke is 7000-8000 k cal / kg Coke is obtained by heating in special

	davomida maxsus kameralarda qizdirish yo‘li bilan olinadi.	chambers in furnaces for 12-18 hours.
Qotishma Alloy	Ikki yoki undan ortiq metallarni metallar bilan yoki metallarni metalmaslar bilan birgalikga eritilib xosil qilingan aralashmasi	A mixture of two or more metals formed by melting metals together with metals or metals together with non-metals
Ferrit (F) Ferrite (F)	Uglerodni alfa temirdagi qattiq eritmasi bo‘lib, bu eritmada uglerod 0,3 miqdorda (0da 0,006%) bo‘ladi. Ferrit texnik toza temirdir.	Carbon is a solid solution of alpha iron, in which the carbon content is 0.3 (0.006% at 0). Ferrite is a technically pure iron.
Koks gazi Coke oven gas	Toshko‘mirdan koks olishda koks gazi xosil bo‘ladi va tarkibi vodorod (50-60%), metan(20-34%), uglerod oksidi SO (3-4%), SO ₂ 2-3% va azot bo‘ladi. 1 m ³ koks gazi yonganda 4000-4500 k kal issiklik ajraladi. 1 tonna ko‘mir yonganda 300-320 m ³ gaz xosil bo‘ladi.	When coke is extracted from coal, coke oven gas is formed and contains hydrogen (50-60%), methane (20-34%), carbon monoxide SO (3-4%), SO ₂ 2-3% and nitrogen. Combustion of 1 m ³ of coke oven gas releases 4000-4500 k cal of heat. Burning of 1 ton of coal produces 300-320 m ³ of gas.
Quyma cho‘yan Cast iron	To‘g‘ridan-to‘g‘ri quyilib detall olinadi	Direct casting details are obtained
Shlak Slag	Nometal sifatida vaqt - vaqt bilan pechdan chiqarib tashlanadi	As a mirror, it is removed from the oven from time to time
Cho‘yan Iron	Uglerodning temirdagi qattiq eritmasi, uglerod miqdori 2,14 % dan ko‘p foydalanib ishlov berish	Solid solution of carbon in iron, processing using more than 2.14% carbon content

Po'lat Steel	Uglerodning temirdagi qattiq eritmasi, uglerod miqdori 2,14 % dan oshmaydi.	Solid solution of carbon in iron, the carbon content does not exceed 2.14%.
Duralyumin Duralumin	Mis bilan alyuminiy qotishmasi	Aluminum alloy with copper
Flyus Flus	Eritish pechlariga tashlanadi, unda kerakmas jinslar va kuch bilan birikib shlak xosil qiladi	It is thrown into the melting furnaces, where it combines with unnecessary jeans and force to form slag.
Quymakorlik Casting	Metallarni suyultirib, tayyor qoliplarga quyib maxsulot olish texnologiyasi va usullarini o'rgatadi	Teaches technology and methods of obtaining products by liquefaction of metals and casting into finished molds
Koks Soke	Kokslanuvchi toshko'mirlardan maxsuspechlarda xavfsiz sharoitda 1000-1100 gacha qizdirish yo'li bilan olinadi. Koksni issiqlik berish darajasi 7000-8000 k kal /kg Koks pechlarda 12-18 soat davomida maxsus kameralarda qizdirish yo'li bilan olinadi.	Coing coal is obtained by heating 1000-1100 in safe conditions in special furnaces. The heat transfer rate of coke is 7000-8000 k cal / kg Coke is obtained by heating in special chambers in furnaces for 12-18 hours.
Qotishma Alloy	Ikki yoki undan ortiq metallarni metallar bilan yoki metallarni metalmaslar bilan birqalikga eritilib xosil qilingan aralashmasi	A mixture of two or more metals formed by melting metals together with metals or metals together with non-metals
Кокс гази Coke oven gas	Toshko'mirdan koks olishda koks gazi xosil bo'ladi va tarkibi vodorod (50-60%), metan(20-34%), uglerod oksidi SO (3-4%), SO2 2-3% va azot bo'ladi. 1 m ³ koks gazi yonganda 4000-4500 k cal issiklik ajraladi. 1 tonna ko'mir yonganda	When coke is extracted from coal, coke oven gas is formed and contains hydrogen (50-60%), methane (20-34%), carbon monoxide SO (3-4%), SO2 2-3% and nitrogen. Combustion of 1 m ³ of coke oven gas releases 4000-4500 k cal

	<p>300-320 m³ gaz xosil bo‘ladi.</p> <p>When coke is extracted from coal, coke oven gas is formed and contains hydrogen (50-60%), methane (20-34%), carbon monoxide SO (3-4%), SO₂ 2-3% and nitrogen. Combustion of 1 m³ of coke oven gas releases 4000-4500 k cal of heat. Burning of 1 ton of coal produces 300-320 m³ of gas.</p>	<p>of heat. Burning of 1 ton of coal produces 300-320 m³ of gas.</p>
Феррит (F) Ferrite (F)	<p>Углеродни алфа темирдаги қаттиқ эритмаси бўлиб, бу эритмада углерод 0,3 миқдорда (0да 0,006%) бўлади. Феррит техник тоза темирдир.</p>	<p>Carbon is a solid solution of alpha iron, in which the carbon content is 0.3 (0.006% at 0). Ferrite is a technically pure iron.</p>

VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

I. Maxsus adabiyotlar.

- 1.S.A.Rasulov, N.D.Turaxodjayev Metallurgiyada quyish texnologiyasi, o‘quv qo‘llanma. “Cho‘lpon”, Toshkent,2007, 209.
- 2.Rasulov S.A., Turaxodjaev N. D. Metallurgiyada quyish texnologiyasi –T. : Cho‘lpon, 2007.- 215s.
3. Texnologiya liteynogo proizvodstva, lityo v peschanie formi, Uchebnik, pod red. A.P.Truhova, Akadema, 2005, 525.
4. S.S.Jukovskiy, A.M.Lyass Formi i sterjni iz holodnotverdeyushix smesey, M., Mash., 2003, 221.

II. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi